ZULXORBEK TURAPOV

# XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

## (DUTOR BAS)



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**ZULXORBEK TURAPOV**

# XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

## (Dutor bas uchun
## gamma, mashq va etyudlar)

*60211500 - Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari)*
*ta’lim yo‘nalishi I bosqich talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent - 2022

Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**85.315.ya73**
**T 87** **KBK 85.315ya73**

**780.6(075.8)**
**T 87** **UO‘K 780.6 (075.8)**

**Turapov Zulxorbek**
Xalq cholg‘ularida ijrochilik (Dutor bas) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi I bosqich talabalari uchun o‘uv qo‘llanma/Z.Turapov. -Toshkent: “Musiqa” nashriyot, 2022. 150 b.

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi “302”-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan***

*Mas’ul muharrir:* **Nig‘matjon SHARIPOV**, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi professor v.b.

*Taqrizchilar:* **Bahodir MIRPAYAZOV**, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi mudiri, professor

**Sobirjon TURATOV**, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Ushbu o‘uv qo‘llanma oliy ta’lim fan dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, musiqa san’ati sohasidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Unda xalq cholg‘ularida ijrochilik (dutor bas) fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar haqida ma’umotlar beriladi. Ijrochilik mahoratini oshirish maqsadida uslubiy sharhlar asosida dutor bas uchun maxsus yozilgan ва moslashtirilgan bir qator etyudlar kiritilgan.

Это учебное пособие основано на научной программе высшего образования и предназначен для студентов высших учебных заведений в области музыки. Дает информацию о знаниях, умениях и навыках в области исполнительского мастерства (дутар бас) на народных инструментах. В целях совершенствования исполнительского мастерства на основе методических рекомендаций включены специально написанные и переложеннеы для дутар баса ряд этюдов.

This textbook is based on the scientific program of higher education and is intended for students of higher educational institutions in the field of music. Provides information about knowledge, skills and abilities in the field of performing skills (dutar-bass) on folk instruments. In order to improve the performance skills, a number of etudes specially written and arranged for dutar bass based on methodological comments are included.

**ISBN 978-9943-8847-3-1**

© “Musiqa” nashriyoti
© Z.Turapov, 2022

Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini “2017 – 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ijrosini ta’minlanishi munosabati bilan bugungi kunda mamlakatda ***innovatsion rivojlanish*** jarayoni yuzaga keldi. Bu jarayonda ***madaniyat*** va **san’at** sohasini ham yangi bosqichda rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

***Birinchidan*****:** madaniyat va san’at sohasi muassasalarining moddiy-texnika bazasini sezilarli darajada mustahkamlash;

***Ikkinchidan*****:** soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar (teatr aktyorlarini uy-joy bilan ta’minlash; birinchilardan bo‘lib madaniyat sohasida ishlovchi pensionerlarning pensiyalarini to‘liq to‘lash) amalga oshirilishi;

***Uchinchidan*****:** O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona filiali (Qo‘qon shahrida) tashkil etilishi;

***To‘rtinchidan*****:** o‘zbek mumtoz musiqa san’atining noyob namunalarini, ularning o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini asrab-avaylash hamda rivojlantirish tizimining yaratilishi;

***Beshinchidan*****:** O‘zbek milliy maqom san’ati ilmiy-amaliy Markazi va maqom muzeyining (Shahrisabz shahrida) tashkil qilinganligi, har ikki yilda bir marta “Xalqaro maqom san’ati festivali”ni o‘tkazishning yo‘lga qo‘yilishi.

Qisqa muddatda amalga oshirilgan bu ishlar madaniyat sohasini yangicha asoslarda rivojlantirish yo‘nalishini yuzaga keltirdi. Shu jihatdan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida “2019 – 2021-yillarda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi”[1] madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning kompleks dasturi hisoblanadi[2]. Ta’kidlash joizki, Konsepsiya natijasida 2021- yildan boshlab uning navbatdagi “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, amalga oshiriladi. Shu jihatdan biz Konsepsiya munosabati bilan davlatning madaniyat sohasidagi o‘rta va uzoq muddatli kompleks dasturiga ega bo‘ldik.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son qarorining qabul qilinishi milliy madaniyatimizni yanada yuksaltirish uchun zamin yaratdi. “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy

[1] http://lex.uz/docs/ Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi «Ozbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“gi PQ-4038-son Qarori.

[2] «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018-yil 29-noyabr soni.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi"[3].

Musiqa san'atida cholg'u ijrochiligi azal-azaldan o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Cholg'ular rang-barangligining asosiy sabablaridan biri- ijrochilikning ushbu turiga xalq orasida keng qiziqish bo'lsa kerak. Har bir xalq madaniy amaliyotida o'z yurtining milliy an'analaridan kelib chiqib, ruhiyatiga mos holda yuzaga kelgan cholg'ulari mavjud. Ular qaysidir ma'noda xalqning ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettiradi. Shu bois, musiqiy cholg'ular xalqlarning milliy g'ururi sifatida ta'kidlab o'tiladi. Qaysi xalq milliy cholg'ularga boy ekan, bu xalqning madaniyati buyuk, ma'naviyati cheksizdir.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi ma'naviyatining boyligi beqiyos. Shuning bilan birga u turli xildagi mukammal milliy cholg'ularga ega. Har bir cholg'uning o'z dunyosi, falsafasi va tarixi bor. Ularning tarixi – xalq tarixidir. Shu bois til ojiz qolgan paytda cholg'ular tilga kirar ekan, tarixning mislsiz ummonidan so'zlar (nola qilar) ekan

Ma'lumki, mamlakatimizda uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi shakllantirilgan bo'lib, unda miliy cholg'ularimiz g'ijjak, nay, chang, dutor, tanbur kabi cholg'ular bilan birga yangi yaratilgan rubob prima, dutor alt, dutor bas, g'ijjak alt, g'ijjak qobuz bas va g'ijjak qobuz kontrabas cholg'ulari bo'yicha ham mutaxasisslik bo'yicha ta'lim berib kelinmoqda. Shu kungacha bu cholg'ular bo'yicha ayrim qo'llanmalar mavjud bo'lsada, yangi yaratilgan cholg'ular uchun maxsus o'quv adabiyotlarining yetishmasligi bugunga kelib ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy cholg'u ijrochlik san'atida o'z o'rniga ega bo'lib ulgurgan dutor bas cholg'usi uchun ham bu muammo o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu bois, ushbu o'uv qo'llanma dutor bas cholg'usi bo'yicha ta'lim sifatini yanada oshirish, uni zamon talabiga mos ravishda tashkil etish, sohani zarur adabiyotlar bilan boyitish maqsadida tayyorlangan.

60211500 - Cholg'u ijrochiligi bakalavr ta'lim yo'nalishining davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarga mos ravishda, o'quv rejasiga kiritilgan "Xalq cholg'ularida ijrochilik" fani o'quv dasturi asosida yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma musiqa yo'nalishidagi Oliy ta'lim muassasi I bosqich talabalari uchun mo'jallangan. O'quv qo'llanmada ixtisoslik bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladigan dars mashg'ulotlarining asosiy mazmuni, etyudlarni o'rganishning muhim jihatlari, talabaning ijro mahoratini takomillashtirish usul va uslublari o'z ifodasini topgan. Bunda xalq cholg'ularida ijrochilik fani bo'yicha, ya'ni, dutor bas cholg'usining ijrochilik holatidan tortib murakkab ijro mahoratini takomillashtirishgacha bo'lgan barcha ko'rikma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Fanning asosiy maqsadi cholg'uda ijro etish malakalarini o'rgatish bo'lib, turli bosqichlarda alohida tanlangan reja asosida amalga oshirib boriladi. Oliy ta'lim muassasalarida cholg'u ijrochiligi fani talabaning ijrochilik ko'nikmalarini takomillashtirish bilan birga uning musiqiy tafakkurini kengaytirish, turli murakkablikdagi janr va ijro yo'nalishlariga xos asarlarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu bosqichda talabalar turli shakl va murakkablikdagi

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son qarori.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Oʻzbekiston va jahon kompozitorlari ijodiyotiga tegishli boʻlgan keng koʻlamli ijro dasturlarini oʻzlashtirish bilan birga cholgʻular uchun maxsus yozilgan va moslashtirilgan etyud hamda gammalarning murakkab shakllarini oʻrganishlari talab etiladi.

Fanning asosiy vazifalari etib oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarni chuqurlashtirish, ijro mahoratini yuksaltirish bilan birga uni yakkanavoz ijrochi, ansambl va orkestr ijrochisi, hamda muayyan cholgʻu boʻyicha oʻqituvchi sifatida kasbiy faoliyat koʻrsatadigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash kabi bir qancha jihatlar belgilangan.

Cholgʻu ijrochilik fanida talaba oʻz iqtidorini imkon darajasida rivojlantirishga harakat qilishi, oʻzining ijodiy va amaliy ijrochilik salohiyatini toʻla namoyon etishi, ijrochilik uslublarini dutor bas cholgʻusida qoʻllay bilishi, kelajakda ushbu cholgʻu boʻyicha yosh avlodga saboq berish koʻnikmalarini oʻzlashtirib borishi zarur.

Ushbu fanni oʻzlashtirishda an’anaviy oʻqitish shakllari, ya’ni bosma adabiyotlardan foydalanish va ogʻzaki tushuntirish shakllari bilan birga zamonaviy interfaol metodlardan, xususan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy oʻquv jarayonida keng qoʻllaniladi. Axborot resurs markazi kompyuterlari, internet, “Ziyonet” kabi tarmoqlar, maxsus Veb-sayt sahifalaridan unumli foydalanish, uslubiy tavsiyalar va nota grafikasi amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish talab etiladi.

Shu bilan birga oʻquv qoʻllanmada talabaning mustaqil ta’limini toʻgʻri tashkil etish uchun koʻplab adabiyotlar, savol va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Mustaqil shugʻullanish doirasida talaba oʻquv qoʻllanmadan tashqari cholgʻu ijrochilari tomonidan oʻtkazilayotgan turli konsertlarni muntazam kuzatib borishi, har-xil cholgʻulardagi ijrolarni tinglashi, ularni nazariy va amaliy tahlil qila olishi, turli ijro uslublarini ajrata bilishi, ijrolarni toʻgʻri baholay olish kabi muhim kasbiy koʻnikmalarni oʻzlashtirib borishi maqsadga muvofiq.

Mazkur oʻquv qoʻllanma an’anaviy (bosma) oʻquv adabiyotlari sirasiga kiradi. Uning oʻziga xos jihatlaridan biri shuki, unda dutor bas uchun moʻjallangan gammalar va mashqlar, kompozitor Sh.Sobirovning dutor bas uchun maxsus yozgan ikkita etyudi, muallifning koʻp yillik ijrochilik tajribasiga asoslangan holda dutor basga moslashtirilgan hamda cholgʻu uchun oʻzi yozgan etyudlari kiritilgan.

Cholgʻu ijrochiligi fani boshqa mutaxassislik fanlari bilan uzviy bogʻliq. Xususan, ansambl sinfi, orkestr sinfi, turdosh cholgʻularni oʻrganish, xalq kuylarini notaga olish kabi fanlarda oʻzlashtiriladigan bilimlar bevosita ushbu fan dars mashgʻulotlarida ham oʻziga xos shaklda berilgan boʻlib, ular talabaning bilim va koʻnikmalarini mustahkamlashda tizimli ravishda samara beradi. Bu jarayon oʻz navbatida ushbu fanda oʻrganilgan bilimlarni boshqa fanlarni oʻzlashtirish amaliyotida amalda qoʻllash imkoniyatini beradi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## I BOB

## 1-MAVZU. XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK (DUTOR BAS)

**Reja:**

**1.1. Cholg‘u ijrochiligi nazariyasi va tarixi.**
**1.2. Cholg‘u ijrochiligi va cholg‘uning tovush imkoniyatlari.**
**1.3. Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro uslublari.**
**1.4. Musiqiy bezaklar. Ijro shtrixlari. Ornamentika.**

***Tayanch iboralar:*** *“Milliy cholg‘u ilmiy ishlab chiqarish ekspremental laboratoriyasi”, V.A.Romanchenko, A.A.Kevxvyans, S.Ye.Didenko, A.Nazarov, “Sug‘diyona”, xalq cholg‘ulari, takomillashtirish.*

### 1.1. Cholg‘u ijrochiligi nazariyasi va tarixi

O‘zbek xalqi dunyoning ko‘pgina xalqlari kabi o‘ziga xos cholg‘ulariga ega. Uzoq o‘tmishdan cholg‘ular xalq tomonidan ardoqlanib kelingan. Shu bilan birga, har bir cholg‘u zamonasiga yarasha takomillashib kelgan. O‘zbek musiqa san’ati ijrochiligi amaliyotida dutor, tanbur, sato, chang, nay, qonun, g‘ijjak, rubob, surnay, doyra, nog‘ora kabi milliy cholg‘ular bor. Ularning har biri ijrochilik jarayonida shakllanib, rivojlanib amaliyotda o‘z o‘rni va mavqeini saqlab avloddan avlodga o‘tib kelmoqda.



O‘zbekistonning XX asr musiqa madaniyati va san’ati umumjahon madaniyati bilan o‘zaro aloqalari, bir-biriga bo‘lgan ta’siri natijasida yangi-yangi yo‘nalishlar, ijodiyot sarchashmalari yuzaga keldi. Bu jarayon o‘zbek cholg‘ushunoslik sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Ayniqsa, o‘zbek milliy cholg‘ularini sohasi yangi, o‘zgacha sahifa sifatida kirib keldi. Bu albatta o‘zbek musiqa san’ati ijrochiligining dunyo miqyosidagi o‘rnini yangilanib borayotgani bilan ham bog‘liq. Chunki, dastlab yakkanavozlik, yakkaxonlik va ayrim holdagi qisqa ansambl ijrochiligi, yangicha yo‘nalish, ya’niy katta ansambl, orkestr ijrochiligi kabi yo‘nalishlar bilan boyib bordi. Shu sabab bo‘lsa kerak, O‘zbekistonda cholg‘ushunoslar, cholg‘u ijrochilari va orkestr rahbarlarida bir masala, orkestr tarkibini cholg‘ular bilan boyitish fikri paydo bo‘ldi. Nihoyat 1930 yilning o‘rtalariga kelib Toshkent musiqa bilim yurtida bu muommolarni yechish boshlandi. Bilim yurti ustaxonasi ustalar V.A.Romanchenko, A.A.Kevxvyans, S.Ye.Didenkolar o‘zbek xalq cholg‘ular asosida orkestrga mo‘ljallab cholg‘ular yasash ishiga qo‘l urdilar va bu yo‘nalishda say’i harakatlar boshlab yuboradilar. Maqsad, o‘ziga xos orkestr yaratish edi. Ustalar yo‘g‘on (past) tovush tarannumi uchun maxsus cholg‘u yaratishlari zarur edi. Shunda milliy cholg‘u dutori “oilasi”ni tuzib o‘ziga xos cholg‘uga va shaklga ega



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

bo‘lgan cholg‘u yaratishga muvaffaq bo‘ladilar. Uni yo‘g‘on ovozli cholg‘u siatida “Dutor bas” deb atay boshladilar. Ilk bor bu cholg‘u orkestrga mo‘ljallanganligi sababli dastasi yo‘g‘on, diapazoni ham unchalik katta bo‘lmagan, lekin kutilgan ovozga ega bo‘lgan, faqat cholg‘uning ijrochilik imkoniyatlari cheklangan edi. Bu albatta ijrochilarni qoniqtirmas edi. Chunki, cholg‘uda musiqiy asar ijro etishda bir oz qiyinchilik mavjud edi. Keyinchalik, bu cholg‘u ustida yanada takomillashtirish ishlari olib borildi. Bu amal O‘zbekiston san’atshunoslik istitutining tajribalar laboratoriyasida A.I.Petrosyans, S.Ye.Didenko hamda cholg‘u ijrochilari hamorligida cholg‘u ustalari tomonidan davom ettirildi. Cholg‘u imkoniyatlarini yaxshilandi, ijro qulayliklari va ovoz diapazonini kengaytirishga harakat qilindi. Natijada 1950 yilning boshlariga kelib, o‘ziga xos takomil darajadagi dutor basning bir namunasi yaratildi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi tasarrufidagi “Milliy cholg‘u ilmiy ishlab chiqarish ekspremental laboratoriyasi” arxiv hujjatlaridan foydalanish jarayonida Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi) rektori H.R.Rahimovning o‘quv laboratoriyasi xodimlari S.Ye.Didenko va A.I.Petrosyans buyurtmalari bilan Moskvaga “Ixtiro etish va ochish ishlari bo‘yicha davlat komitasi”ga Dutor prima, Dutor sekunda, Dutor alt, Dutor bas, Dutor kontrabas cholg‘ularini ishlab chiqish uchun ruxsat beruvchi guvohnoma berilishini so‘rab xat yoziladi. Ushbu nus’xalar Monrealda bo‘lib o‘tadigan Xalqaro ko‘rgazmada namoyish qilinishi ta’kidlab o‘tiladi. Shu tarzda 1966 yili cholg‘uni ovoz sifati sofligi bilan ajralib turuvchi, diapazon hajmi jihatidan ham ancha kengaygan, diapazon hajmi katta oktava “do” dan ikkinchi oktava “lya” gacha bo‘lgan namunasi yaratiladi. Cholg‘u imkoniyatlari nafaqat orkestr tarkibida jo‘rnavozlik jihatlariga, balki yakkanovozlik xususiyatlariga ham ega bo‘lganligi namoyon bo‘ldi. Bunga, cholg‘u avvaliga qaraganda menzurasi kichraytirilgani, kosoxonasi nisbatan ixchamlashtirilganligi alohida takidlash joiz. Bu cholg‘u namunalari ijrochilik imkoniyatlarini kengayishini ta’minlab, ijrochilarga ancha qulaylik yaratadi.

Dutor bas kosadan, pardalik dastadan, mexanik quloqli bosh qismdan iborat. Kosa bo‘lak-bo‘lakchalardan iborat yupqa yog‘och qovurg‘alarning biriktirilishi natijasida hosil qilinadi. Kosaning ustki yassi tomoniga rezonator teshikchali ovoz o‘tkazuvchi yog‘och qopqoq o‘rnatilgan. Ijro jarayonida yog‘och qopqoq mediator zarbidan shkast yetmaslik uchun yog‘och qopqoq ustidan “qalqon”– yog‘och qatlami yopishtirilgan. Yog‘och qopqoq ustida pardalar uzra torlarni ma’lum balandlikda saqlab turuvchi xarrak qo‘yilib, u sadolanadigan torlarning quyi chegarasi hisoblanadi. Cholg‘uning dastasi yuqorida har ikki tomondan torlarni tarang qilib turuvchi, buraluvchi mexanik quloqlar o‘rnatilgan bosh qismiga borib taqaladi. Dastaning yuz qismiga pardalik qatlam yopishtirilgan, unda xromatik tartibga asoslangan pardalar ko‘ndalangiga qadalgan. Pardalar bosh qismidan kosa tomonga qarab sanab boriladi. Dutor basda to‘rtta tor bo‘lib, birinchisi “lya” ichak yoki kaprondan, ikkinchisi “re”, uchinchisi “sol” va to‘rtinchisi “do” torlari metalldan yasaladi.

Dutor bas cholg‘u ijrochiligi san’ati tarixi haqida gapirganimizda, cholg‘u ijrochiligini amaliyotda yo‘lga qo‘yish, o‘qitish, munosib ijrochilar yetishtirib, maktab yaratish, sifatli cholg‘ular tayyorlash, hamda yoshlarga munosib ta’lim berishda albatta hurmatli ustozimiz Ashot Konstantinovich Nazarovning xizmatlarini alohida e’tirof



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

etish lozim. O‘zbekistonda va undan tashqarida dator bas ijrochilik san’atida mavjud yutuqlar Ashot Kostantinovich Nazarov nomi bilan bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 42 yillik murabbiylik faoliyati mobaynida “O‘zbek xalq cholg‘ulari” yo‘nilishi, dutor bas cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha 60 dan ziyod oliy ma’lumotli sozanda-ijrochilarni tarbiyalab yetishtirdi. Bulardan Turg‘un Pattaxov (marhum) , O‘tkir Oripov (marhum), Baxtiyor Ziyaev, Iosif Ismailov (marhum), Sadullo Muqumov, Abdusattor Malikov, Muhammadjon Badelov, Zulxorbek Turapov, Sherzod Umarov, O‘ktam Saydaliev, Qurbon Hoshimov, Salohiddin Eraliev, Haytmurod Primov, Sirojiddin Muhammadiev, Farrux Irisov, Odil Ro‘ziev, Rustam Ergashev, Haydarali Rahmonov, Dilshod Xakimov, Dilshod Madiev, Mirzaxon Jo‘raev, Valijon Dadaxonov, Abduvohid Xalikov, Ta’lat Botirov, Mashhurbek Turdiboevlar ustozdan olgan saboqlariga tayangan holda Respublikaning turli san’at dargohlarida muvaffaqiyat bilan mehnat faoliyanlarini olib bormoqdalar.

Hozirgi kunda Dutor bas cholg‘usida o‘qitish o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Shu bois o‘qitish jarayonida musiqiy-uslubiy masalalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda Dutor bas cholg‘usi uchun maxsus yozilgan darsliklardan o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarda keng foydalanilmoqda. A.Nazarovning “Bas dutor darsligi” (Toshkent. 1983 y.), “Сушность приёма игры на плектрных музыкальных народных инструментах” o‘quv qo‘llanmasi (Toshkent. 1987 y.), “Практическое освоение приёма тремоло на плектрных народных инструментах” o‘quv qo‘llanmasi (Toshkent. 1996 y.), “Вопросы методики обучения игры на басовом дутаре” qo‘lyozmasi (Tashkent. 1997 y.), Z.Turapovning “Dutor bas” o‘quv qo‘llanmasi (O‘zbek mumtoz musiqasi namunalari, Toshkent. 2004 y.) shular jumlasidandir.

Ansambl hamda orkestrlarda g‘ijjak qobuz bas va g‘ijjak qobuz kontrabas bilan bir qatorda asosiy - bas (fundament) tovushni ifodalovchi cholg‘ulardan biri sifatidagina emas, balki yakkanovoz cholg‘u sifatida ham keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestri, “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabalar orkestrlari, Toshkent shahri va viloyatlardagi o‘quv yurtlarida orkestr tarkibida hamda yakkanavoz sifatida ushbu cholg‘udan keng foydalanilmoqda. Chunki, dutor bas xalq cholg‘u orkestrining asosiy fundament tovush beruvchi cholg‘ularidan biridir. Dutor bas cholg‘usining o‘ziga xosligi, tarovati va orkestrlar tarkibida o‘zgacha joziba taratishi begumon. Buni har bir tinglovchi sezadi va his etadi albatta.

“Sug‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestridagi mehnat faoliyatimiz mobaynida (1992-2005 y.y.) Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Misr Arab Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlarida konsert-gastrol safarlarida bo‘lganimizda eshituvchilar o‘zbek xalq cholg‘ulari qatorida dutor bas cholg‘usiga ham katta qiziqish bilan e’tibor berganliklarning guvohi bo‘ldik. Konsertlarda o‘zbek xalq va mumtoz musiqasi namunalari bilan bir qatorda M.Albenisning “Asturiya”, A.Arutunyanning “Espromat”, A.Senalening “Allegro spritiozo” kabi jahon kompozitorlarining asarlarini ijro qilganimizda o‘zbek milliy cholg‘ulariga hamda ijrochilik mahoratiga bo‘lgan munosabatlarini nihoyatda iliqligini kuzatdik. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

“Registon” guruhi tarkibida Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Belgiya, Gollandiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, Latviya, Litva, Estoniya, Qozog‘iston kabi davlatlardgi konsert dasurlarida milliy cholg‘ularimiz qatorida Dutor bas cholg‘usi tarannumi, ijro imkoniyatlarini musiqa ihlosmandlariga namoyish qilishga muvaffaq bo‘ldik. Tinglovchilarning cholg‘uga–ijrochilik mahoratlariga bo‘lgan iliq munosabatlarining guvohi bo‘ldik.

Odatda, tinglovchi jozibali cholg‘ular tarannumini o‘zi saralaydi va unga e’tibor bilar boqadi. Dutor basning chiroyli ovozi, uning mungli va benuqson tarannumi sababi qadimiy, hamisha navqiron, Sharq olamida mashhur bo‘lgan Ud cholg‘usi tarannumiga yaqinroq bo‘lgani bo‘lsa ajab emas. Har bir cholg‘uning o‘z atori bor deyishadi. Dutor bas ham el ichida o‘z o‘rnini topib, o‘z muhlislariga ega bo‘lishi uning mukammaligidan darakdir.

O‘tmish an’analariga tayanib yaratilgan har qanday amal o‘z rivojini topgandek hozirgi zamon o‘zbek cholg‘u ijrochiligida dutor bas cholg‘usining ham o‘z tutgan o‘rni bor.

## 1.2. Cholg‘u ijrochiligi va cholg‘uning tovush imkoniyatlari

Musiqa ijrochiligi bilan ongli ravishda shug‘ullanishning eng muhim jihati intonatsiya parametrlarining sifati bilan bog‘liq. Tinglovchidan farqli o‘laroq ijrochi uchun tovush, eshitish orqali aniqlanadigan sof ruhiy holatgina emas, balki, badiiy va estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu jarayonda musiqachi tomonidan ritm, ohang va uyg‘unlik bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda vositasi sifatida qabul qilish muhim masala hisoblanadi. Melodiya, garmoniya, ritm asosan musiqiy-nazariy tushunchalar bo‘lib, musiqiy til tizimini tashkil etuvchi sifatida musiqiy asarni o‘zlashtirishning negizi sanaladi. Bular musiqiy asarning namunalarini, ularning tuzilish tamoyillarini va tasniflash mezonlarini o‘zlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tushunchalarga taalluqli nazariy bilimlarning asosiy qismi barcha musiqiy ta’limning eng muhim asosi hisoblanadi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni ijrochilik bilan bog‘lash, ijrochining asardagi ritm va kuy uyg‘unligiga erishishning printsiplari, yondashuvlari va vositalar majmuasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Musiqiy asar ijrochiligining ongli maqsadli faoliyati sifatida badiiy va texnik jihati mavjud bo‘lib, zamonaviy ijrochilik nazariyasida texnik ijrochilik nazariyasi badiiy jihatdan talqin qilinishi nazarda tutiladi. Ijrochining mantiqiy fikrlashida texnik jihatdan badiiy va ijro etuvchi vazifalarni hal qilishda yordam beradigan nazariy komponent sifatida qarama-qarshilikka ega bo‘lishi mumkin. Odatdagi ijrochilik davrida (varaqdan o‘qish, transpozitsiya va improvizatsiya qilish) tovush sifati-eng nozik, ayni paytda ijrochilikdagi badiiy qiymatning eng muhim ko‘rsatkichidir.

Musiqa nazariyasining ahamiyati, uning qoidalari, tushunchalari va terminlarini o‘zlashtirish ijrochilik amaliyotida o‘z bilimlari darajasiga bog‘liqligi bo‘yicha ikki yo‘nalishdagi yondashuv asosida tahlil qilinadi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

1) etyudning shakli, xususiyatlari, musiqiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish;

2) matnni tezkor tahlil qilish, uni o‘rganish, ijro etish va xotirada saqlash.

Musiqani notadan o‘qish jarayoni nota, shtrix va boshqa belgilarga tayanishni talab qiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy fikrlash ritm, ohang, akkord kabi nazariy materiallarni belgilanishi bilan ijrochilikdagi ahamiyatini avtomatlashgan shakldagi o‘zlashtirish darajasiga yetkazish ijrochilik texnikasining muhim sharti sanaladi.

Musiqiy tilning asosiy tarkibiy qismlari (ritm, ohang, akkord), ularni tashkil qilishning muayyan shakllari (musiqa) va saqlash (musiqiy nota) haqidagi asosiy nazariya o‘rganish ob’ektiga aylanadi. Musiqiy belgilar emas, balki ularning mohiyatini aks ettirgan nazariy tushunchalar ijrochilik sohadagi kontseptsiyalarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ijrochi tayyorlashning asosiy mezoni musiqiy belgilar va ularning o‘zaro munosabatlarining turli shakllarini rivojlantirishdir.

So‘nggi paytlarda dutor bas cholg‘u ijrochiligiga qiziqish yanada ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa ijrochiligi miya faoliyatini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa bilan shug‘ullanadigan bolalar yaxshi xotiraga, nutq va til talaffuzning aniqligiga, o‘qish qobiliyatiga va ijrochilik funksiyalariga ega bo‘la oladi. Bolaligida musiqiy cholg‘usini o‘rganish kelajakda akademik mehnat faoliyatini va intelektual qobiliyatni shakllanishiga yordam beradi. Miyada kuzatilgan tizimli va funksional moslashuv darajasi ijrochilik amaliyotining jadalligi va davomiyligi bilan bog‘liq. Xususan, musiqiy ta’limning davomiyligi va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish ijrochilik amaliyotiga ta’sir qiluvchi ta’limining motivatsiyasi sifatida muvaffaqiyatga erishishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik, ritmik xis qilish, ijrochilik ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

## 1.3. Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro uslublari.

Dutor bas xalq cholg‘ularining rekonstruktsiya qilinishi jarayonida ansambl va orkestrlar tarkibini boyitish maqsadida yaratilgan cholg‘u bo‘lib, bugungi kunda yakkanavoz cholg‘u sifatida o‘z o‘rniga ega. Cholg‘u ijrochiligida dutor bas past registrga ega bo‘lib, cholg‘u mizrobli cholg‘ular ichida tovush imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi. Diapazoni katta oktava “do”dan ikkinchi oktava “lya”gacha. Kvinta oralig‘ida sozlanadi.

Sozlanishi









Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

| Sozlanishi | Diapazoni | | Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi |
|---|---|---|---|
| | Yozilishi bo‘yicha | Eshitilishi bo‘yicha | |
| I tor “**Lya**” kichik oktava | “**Do**” katta oktavadan “**Lya**” ikkinchi oktavagacha | Notaga yozilganidek eshitiladi | Transpozitsiya qilinmaydi |
| II tor “**Re**” kichik oktava | | | |
| III tor “**Sol**” katta oktava | | | |
| IV tor “**Do**” katta oktava | | | |

Hozirgi davr o‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligida har bir cholg‘u zamon talabiga javob beradigan, sifatli tovush imkoniyatlariga ega ekanligi muhim hisoblanadi. Cholg‘u sifatli yog‘ochdan yasalganligi, torlarining sifatliligi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Barcha o‘zbek xalq cholg‘ulari kabi dutor basda ham tovush hosil qilishning bir qancha usullari bor. Barcha mezrobli cholg‘ular kabi dutor basda ijro qilishning bir necha usullari bor. Cholg‘uda maxsus yasalgan mizrob (mediator) bilan torlarni yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga harakatlanib tovush xosil qilinadi, pitstsikato esa o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i yostiqchasi bilan ijro etiladi.

Mizrob bilan torlarni yuqorida pasga harakatlani tovush hosol qilish:



Mediator bilan torga yuqoridan pastga harakatlanib tovush hosil qilish jarayonida tovushning bir xil sadolanishga e’tibor qaratish lozim. Ushbu usulni qo‘llashda o‘rganishda shoshmasdan, chap qo‘l barmoqlari va o‘ng qo‘l bo‘g‘imiga zo‘r bermay, erkin harakatlanishi lozim.

Mediator bilan pastdan yuqoriga harakatlanish natijasida paydo bo‘ladigan usul sharq musiqasi namunalari, o‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini ijro qilishda juda ko‘p qo‘llaniladi va notaning ustiga yuqoriga belgisi qo‘yiladi:




Mizrob bilan ikki taraflama-yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga harakatlanib tovush xosil qilish:



Bu usullni qo‘llashda pastga qarab zarb berilishi bilan darhol yuqoriga qarab zarb beriladi. Usulni qo‘llayotganda o‘ng qo‘l panjasining erkin harakatlanishiga



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Yuqoriga qarab berilgan zarbadan chiqqan ovoz pastga qarab berilgan zarba ovoziga qaraganda bir oz zaifroq eshitiladi. Galma-gal zarbalarni o‘rganib borish jarayonida tovushlarning kuchi va sifati sof, bir xil sadolanishishiga harakat qilish lozim.

Triol ham ijrochilik amaliyotida ko‘p uchraydigan usullardan. Ushbu usul ijro jarayonida kuyning xarakteriga asoslangan holda mizrobning turlicha almashinuvlari orqali berigan zarbi bilan amalga oshiriladi. Har bir tovushning sof, ravon sadolanishi uchun ma’lum ko‘nikmalar talab qilinadi:



Ijro jarayonida triol guruhidagi har birinchi notaga mediator bilan yuqoridan pastga qarab zarb berishda nomutanosiblik vujudga kelishi mumkin. Albatta buni mashqlar jarayonida o‘zlashtiriladi.

Stakkato usuli mediator bilan torlarga qisqa-qisqa, pastga yoki yuqoriga harakatlantirish jarayonida tovush hosil qilinadi. Mizrob torga urilishi bilan chap qo‘l barmog‘i torda ko‘tariladi. Tez sur’atlarda mizrob bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga zarb berish orqali tovush hosil qilinadi. Stakkato usuli ustiga nuqta belgisi qo‘yiladi:



Tremolo usuli mizrobli cholg‘ularda mediator bilan toriga yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga bir tekkisda zarb berilishi asosida hosil qilinadi va ijro etilayotgan kuyning nota cho‘zimiga qarab davomiy bo‘ladi. Tremolo usuli mizrobli cholg‘ular ijrochilik amaliyotida juda ko‘p qo‘llanadigan usul bo‘lib, uni o‘zlashtirishda jiddiy mashq qilish talab etiladi. O‘ng qo‘l bo‘g‘imi amplitudasining bir hil tebranish orqali yaxshi natijaga erishish mumkin:



Bu usulni o‘zlashtirishda dutor basning torlarida choraktalik, sakkiztalik, o‘n oltitalik va o‘ttiz ikkitalik cho‘zimlarga asta sekinlik bilan o‘tib, ko‘p mashq qilish maqsadga muvofiq. Nota ustiga legato belgisi qo‘yilganda legato davom etgan notagacha ushlab ijro qilish kerak:



Bunda taktdan taktga o‘tganda legatoga qat’iy amal qilgan holda ovoz tarannumi mo‘tadil, bir xil, ravon sadolanishiga harakat qilish lozim. Bu usulni o‘zlashtirishda



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

turli mashq va uncha murakkab boʻlmagan asarlar ijrosi yaxshi koʻnikma beradi. Butun notaga qancha zarb tushushi haqida oʻylamasdan, torning uzluksiz sadolanishini eshitib, oʻng qoʻl boʻgʻimning erkin harakatlanishiga eʼtibor qaratish lozim. Bunda tordan toga turli choʻzimda va turli surʼatlarda oʻtish mashqlari ham foyda beradi.

Pizzicato (bosish maʼnosini bildiradi) bosh barmoqning yumshoq joyi orqali tovush chiqariladi. Bunda musiqiy asarda pitstsikato asosida ijro qilinadigan nota ustiga “pizz” yozuvi qoʻyiladi, mediator bilan ijro etish kerak joydan “arco” yozuvi qoʻyiladi. M.Bafoevning dutor bas va fortepiano uchun yozilgan konsertining kadensiya qismida koʻrib chiqamiz:




Dutor bas cholgʻusida uch va toʻrt ovozlik akkordlar ijro qilish imkoniyati ham mavjud. Akkordlar cholgʻuning tuzilishiga va akkord tovushlarning chap qoʻl barmoqlar imkoniyatlariga asoslangan boʻlishi lozim. Akkordni mizrob bilan barcha torlarga bir vaqtning oʻzida yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga zarb berish bilan hosil qilinadi:



Bunda berilgan akkord ustiga yuqoriga belgisi qoʻyiladi va ijroda akkordning barcha tovushlari aniq, ravon sadolanishishiga eʼtibor qaratish lozim:



Xuddi shu akkordlarini arpedjio usulida ham qoʻllash mumkin. Bunda arpedjio usulida ijro qilinadigan akkord tepasiga yuqoriga belgisi hamda yoniga (chap tarafiga) arpedjio belgisi qoʻyiladi:



Arpedjio usulida ijro qilinqdigan akkordning chap tarafiga yuqoriga pastdan yoki pastdan yuqoriga belgisi qoʻyiladi. Ijro jarayonida tovushlarning birin-ketin aniq va ravon sadolanishiga erishish lozim.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## 1.4. Musiqiy bezaklar. Ijro shtrixlari. Ornamentika

Professional cholg‘u ijrochiilgida “ornamenika”ga, ya’ni, bezatuvchi tovushlarga katta ahamiyat beriladi.[4] Bu tovushlar sozanda va eshituvchining ruhiy kayfiyatiga ta’sir etishga, ijro etilayotgan asarning intonatsion ladli vazifalarini ochib berishga yordam beradi.

**Melizmlar** (yun. “melisma”- “qo‘shiq”, “kuy”), ornamentika, musiqa bezaklari-vokal va cholg‘u musiqasida muayyan shaklga ega (masalan, trel, forshlag, girift, kashish va boshqalar) yoki erkin tarzda ijro etiladigan (passaj, fioritura, qochirim, nola, molish) barcha ohang bezaklari, kuyning asosiy pog‘onalarini o‘zgartiradigan qo‘shimcha tovushlardir. Melizmlar kuy ohangdorligini, ta’sirchanligini oshiruvchi, ko‘proq lirik mazmunni boyituvchi vositalar sifatida musiqa san’atida keng joriy etilmoqda. Melizmlar xalq musiqa ijodiyoti va ijrochiligi, xususan, badiha san’ati, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodiyotida uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan an’analarning mahsulidir. Melizmlarga oid ma’lumotlar O‘rta asr Sharq musiqa risolalarida o‘z aksini topgan. Mahmud ash-Sheroziy (XIII asr) sozlarda ijro etish uslublari borasida fikr yuritib, sozandalar kuylarni bezaklar bilan boyitishi lozimligini ta’kidlagan. Jomiy esa kuy bezaklarida malaka hosil qilish ijrochining o‘ziga bog‘likligini uqtirgan va o‘z zamonasi amaliyotidan misollar keltirgan.

**“Zarbi parron”**-mizrobli cholg‘ularda tez-tez qo‘llanadigan usul bo‘lib, o‘zbek xalq kuylari va maqomlarini ijro etishda keng qo‘llaniladi. “Zarbi parron” mizrob bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berish bilan hosil qilinadi. U asosiy tovushga yondosh bo‘lgan-bittalik forshlagni yeslatadi:



Ushbu usulni H.A.Rasulovning - “Qo‘shchinor” kuyi misolida ko‘rishimiz mumkin:



“Zarbi parron”ning ikkinchi turi qo‘sh farshlag holda uchraydi. Bu usuldan ham cholg‘u ijrochiligida keng qo‘llaniladi:



**“Sayqal”** - mordentni eslatadi. Uni ijro etishda asosiy tayanch tovushga ikkinchi barmoq bosiladi va mizrob zarbidan so‘ng birinchi barmoq bilan pastga yordamchi pog‘ona (ton) yoki yarim pog‘ona zarbsiz ijro etiladi. Bunda mordent ustiga “+” belgisi qo‘yiladi:

---

[4] “Ornamentika” - lotincha “ornamentum”, bezak degan ma’noni anglatadi. Asosiy melodik shaklni bezatuvchi tovushlar yig‘indisi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




**“Glissando”** - bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish. Bu usulni dutor basda qo‘llashda birinchi yoki ikkinchi barmoq qulay:



Glissandoni “Buxorcha Mavrigi” asari misolida ko‘rishimiz mumkin:



**“Molish”** - barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg‘altirish usuli. Bu usul glissandoga yaqin bo‘lib, badiiy talqin qilishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi:

1) Kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish. Bunda sirg‘alish boshlang‘ich tovushni oluvchi barmoqdan boshlanadi, keyingi ton boshqa barmoq bilan olinsa ham bo‘ladi:



2) Kichik va katta sekunda hamda tersiya intervallarida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga, bir tovushdan ikkinchi tovushga bir barmoqda sirg‘alib o‘tiladi. Bir barmoqning sirg‘alishi boshqa (yuqoridagi yoki pastdagi) barmoq bilan almashtirilgan usul ham uchrab turadi. Bu holda chap qo‘lning dutor bas dastasiga



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

ko‘proq tayanch holdagi o‘ziga xos glissando bo‘ladi. Bunda tor bir xil kuch bilan tekis musiqiy sado beradi:



3) Barmoqning bir necha yondosh tovushlar (ton yoki yarim ton) bo‘yicha birin-ketin sirg‘alish usuli faqat bir barmoq bilan bajariladi:



**“Kashish”** - yarim ton orasida bajariladigan bezak bo‘lib, usulni qo‘llashda chap qo‘l barmoqlari dutor basda ko‘ndalang turgan holda torni yuqoriga va pastga tortgandek harakat qiladi, nota yozuvida quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:



**“To‘lqinlatish”** (vibrato) - barcha torli va puflama cholg‘ular uchun xos bezakdir. Dutor basda chap qo‘l barmoqlarini pardaga bosib mizrob bilan zarb berilgandan so‘ng, barmoqning o‘zida torlarni titratish yo‘li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtalik, choraktalik va nimchoraktalik notalarni ijro etishda foydalanish mumkin:



**“Bilak zarb”** - mizrob bilan barcha torlarni yuqoridan pastga birin-ketin uzlyuksiz sadolantirish. Cholg‘u ijrochiligida arpedjio usulini eslatadi. Bilak zarb asosan kuyning boshlanishi yoki jumlaning tugallanishida qo‘llanib, ohang rivojiga yakun yasaydi.

Ushbu usulni Sh.Teshaev dutor bas va fortepiano uchun cholg‘ulashtirgan “Chapandozi Qalandar” kuyining kodasi misolida ko‘rishimiz mumkin:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Nota ustiga "+"** belgisi qo'yilsa tovushlar zarbsiz, chap qo'l barmoqlarini pardaga bosish orqali hosil qilinadi. Bunda mizrob bilan pastga belgisi qo'yilgan notaga kuchli zarb berib, odatda undan so'ng keluvchi "+" belgili pardada, ya'ni notada ham shu zarb to'lqinida (mizrobsiz) chap qo'l barmog'i bilan bosiladi:



**"Trel" -** yuqori yordamchi tovushdan boshlanadigan trel bilan ko'rsatiladi:




Urish tezligi o'ttiz ikkitalik yoki tezroq bo'lishi mumkin, urishlar soni ijrochining xohishiga bog'liq.

Trel har doim tepadan boshlanadi, agar ildiz notasi oldinroq urilgan bo'lsa:




Yuqorida keltirilgan uslubiy tavsiyalarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash lozimki, mumtoz musiqiy asarlarning talqini o'zgacha yangi uslublar, turlicha bezaklar va musiqiy asarlarga nisbatan har bir ijrochi tomonidan turlicha munosabat bilan izohlanadi. Shuning asosida musiqiy asarlarning dutor bas uchun o'ziga xos namunalari paydo bo'ladi. Ijrochilik amaliyotida qo'llaniladigan bunday uslublar yillar davomida sayqallanib, dutor bas ijrochiligining an'analariga aylanib boraveradi.

Musiqa cholg'ulari - musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar, hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'ular, musiqani yakkanavoz yoki jamoa, turli ansambl, orkestr va boshqa tarzda ijro etishda ishlatiladi.

Har bir musiqa cholg'usining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazoni, tovushqator va ifodaviy imkoniyatga ega. Musiqa cholg'usi sadosining sifati, odatda muayyan cholg'uning shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatiladigan materiallarga bog'liq.

Qadimda bastakorlar ijod namunalari orasida topilgan bezaklarning ko'pligi odatda zamonaviy musiqachining didiga zid keladi. Shu bilan birga, fortepiano ovozining yaxshilanishi uni tez-tez ishlatilishining sabablaridan biridir.

Musiqiy bezaklar har doim o'z o'rnini oqlaydigan tarzda bajarilishi va har doim kesilishi kerak. Agar ular melodik yoki garmonik ma'noga ega bo'lmasa, quloqni ortiqcha yuklamaslik uchun ularni tez va oson ijro etish kerak.

Ba'zi melizmlarni shunchalik qattiq va baland ovozda eshitamizki, ohangni bezash o'rniga uning sifatini buzadi. Tinglovchilar bunday "bezaklarni" eshitmaslikni afzal ko'radi.

Agar pianinochining barmoqlari bezakni notalardagi belgilarga muvofiq bajarish uchun hali zarur mahoratga ega bo'lmasa, siz uni soddalashtirishingiz mumkin, o'ta



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

murakkab bo‘lgan holatlarda, hatto olib tashlashingiz mumkin, ijro qilinishi lozim bo‘lsada. Ko‘plab melizmlar bilan ijroni o‘rganishni boshlash, ohangdor chiziqni tushunish uchun avval uni bezaklarsiz o‘rgatish foydalidir. Agar u to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa va tegishli eksspresivlikni olgan bo‘lsa, siz uning “bezaklari”ga o‘tishingiz mumkin.

Aksariyat musiqiy bezaklar odatda siz bezashingiz mumkin bo‘lgan chiroyli bezaklardan ko‘proqdir. Ular ko‘p hollarda, biz ko‘rganimizdek, ohangdor chiziqning yoki garmonik to‘qimalarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nozik yozilgan yozuvlar ba’zida oldilaridagi yozuvlardan ham muhimroq bo‘lishi mumkin. Masalan, uzun nota odatda oldida turgan nota qiymatining yarmini yoki hatto uchdan ikki qismini o‘zgartiradi. Shu bilan birga, u o‘ziga tushadigan stressni, agogika va dinamikani olib tashlaydi. Bunday bezak, xuddi ohangdor yoki garmonik ma’noga ega bo‘lgan har qanday musiqiy iboradagi o‘rni va ma’nosiga mos keladigan ekspressivlik bilan bajarilishi kerak.

Musiqa ijrochiligida yuqori saviyadagi ijro ko‘nikmalariga erishish uchun albatta tovush chiqarish usullari va “ornamentika” katta e’tibor qaratish lozim.

O‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini ijro etish jarayonida ham ornamentikaga, ya’ni bezaklar katta ahamiyat kasb etadi. “Ornamentika” (lotincha “ornamentum” bezak ma’nosini anglatadi)-asosiy melodik shaklni bezatuvchi tovushlar yig‘indisidir. Bu tovushlar sozanda va eshituvchining ruhiy kayfiyatiga ta’sir etishda, ijro etilayotgan asarning intonatsion ladli vazifalarini ochib berishga yordam beradi. O‘zbek milliy musiqasi ijrochiligi tajribasida yuqorida keltirilgan “ornamental” usullar-bezaklar bor va amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Dutor bas cholg‘usida o‘zbek mumtoz musiqamiz namunalari ijro qilinganda birinchi va ikkinchi torlarini bir ton pastga tushirib sozlab, ya’ni, “lya” tori “sol”ga, “re” tori esa “do”ga sozlash tavsiya etiladi:




Bunday sozlanishda cholg‘uning “re” va “lya” torlari bir oz yumshab ijroda yengillik yaratiladi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Nazorat uchun savollar:**

1. Dutor basning tovush imkoniyatlarini haqida gapirib bering.
2. Dutor bas cholg‘usida tovush chiqarishda qanday usullardan foydalaniladi?
3. Temolo usuli qanday hollarda qo‘llaniladi?
4. Stakkato usuli qanday hollarda qo‘llaniladi?
5. Legato usulini arco usulidan qanday farqi bor?
6. “Ornamentika” qanday ma’noni anglatadi?

**Mustaqil ta’lim olish uchun topshiriqlar:**

1. Mizrobli cholg‘ularda tovush xosil qilish uslublari haqida ma’lumot yiging.
2. Kamonli cholg‘ularda tovush xosil qilish uslublari haqida batafsil ma’lumot yig‘ing.
3. Dutor bas cholg‘usi uchun yozilgan adabiyotlar haqida ARM jamg‘armasidan ma’lumot yig‘ing.
4. Dutor bas cholg‘usi ijrochilari haqida ma’lumot yig‘ing.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Nazarov A. “Bas dutor darsligi”. –Toshkent. 1983.
2. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. –Toshkent 1995.
3. Nazarov A. “Практическое освоение приёма тремоло на плектрных музыкальных инструментах. –Ташкент 1996.
4. Назаров А. “Вопросы методики обечения игры на басовом дутаре”, қўлёзма.
5. Nazarov O. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik”. –Toshkent. 2018.
6. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u ilmiy ishlab chiqarish ekspremental laboratoriyasi” arxiv hujjatlari.






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## II BOB

## 2-MAVZU. IJRO KO‘NIKMALARINI O‘ZLASHTIRISH VA ETYUDLAR TAHLILI

Reja:

**2.1. Ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish.**
**2.2. Pozitsiya va applikatura.**
**2.3. Ikkita gamma 2 va 3 ta belgili (turli shtrixlarda, ikki oktavada). Mashqlar.**
**2.4. Turli xarakterdagi etyudlar va ularning ijro tahlili..**
**2.5. Kompozitorlar hayoti va ijodi.**

*Tayanch iboralar: Ko‘nikma, pozitsiya, applikatura, mashq, gamma, etyud, kompozitor, shtrix,*

### 2.1. Ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish.

O‘zbek xalq cholg‘ulari o‘zining sersadoligi, go‘zal ovoz tembri va ayniqsa, ijro uslublari bilan ajralib turadi. Har bir cholg‘uning ijro imkoniyatlari boy va o‘ziga xos. Uni egallash ham cholg‘uga xos munosabatni talab qilish bilan cholg‘ular sadolarining uyg‘unligi asosiy omil sifatida belgilab beradi. Shuning uchun cholg‘uda ijro etish mezonini to‘g‘ri taqsimlash, ijro mahoratini oshirish uchun muayyan tartib asosida mashq qilish juda muhimdir.

Dutor bas cholg‘usi ijrochidan o‘z imkoniyatlarini xarakterlovchi uslubni tanlashni taqazo etadi. O‘ng qo‘l va chap qo‘lni batmoqlari harakati erkin holda borishini ta’minlash zarur. Ayniqsa, mashq jarayonida sozanda texnik imkoniyatini tiklash va rivojlantirishga qaratishi muhimdir. Ushbu mezonni amalda qo‘llash uchun mashq jarayonini uch qismga bo‘lib o‘tkazish maqsadga muvofiqdir:

- birinchi, cholg‘uni chalishga tayyorgalik, ijrochi bilan cholg‘uni erkin talqiniga keltirish demakdir. Shu bois ilk mashqni cholg‘uni dastasi bo‘ylab mo‘tadil harakat, ya’ni gammalar ijrosi bilan boshlash maqsadga muvofiq. Demak, gammalar, uchtovushliklar ijro mashqi;

- ikkinchi, ijroning texnik jihatlari bilan chiniqtirish va imkoniyatlarni rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu jarayon muayyan ritmik tuzilmalarni oktava kengligida yuqoriga va pastga harakatlanishdan iboratdir. Ritmik tuzilmalar sozandaning imkoniyatiga qarab tanlanadi va muayyan holat uchun sodda tuzilma va harakat sur’atidan murakkab tuzilma va tez suratgacha ijro etish bilan amalga oshiriladi;

- uchinchi, erishilgan natijalarni maxsus etyudlar ijrosi bilan mustahkamlashdan iboratdir. Ya’ni, turli xarakterdagi va murakkablikdagi etyudlarni ijro etishdir. Qayd etish joizki, etyudlar sozandalarga nafaqat texnik imkoniyatlarni ko‘rsatadigan asar,



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

balki texnik mohirlik bilan dramaturgik ijro mohiyatini ochib berishi bilan ham xarakterlaydi.

Bu jarayon sozandalar uchun ijro-talqiniga tayyorgarlik davri hisoblanadi. Shu bois har bir sozanda o‘ziga mashq tarkibi, tartibi va ijro uchun muayyan mashq va mashq jarayonini muntazam o‘tishi zarur.

Professional sozandalarni tayyorlash azal-azaldan muayyan tartib, puxta o‘ylangan uslublar negizida amalga oshirib kelingan. Uning zaminida sozandalik sohasining mukammallik omillari bosqichma-bosqich ifodasini topgan. Zotan, har qanday mukammallik va rasolik katta mehnat, tinimsiz mashg‘ulotlar bilan poyoniga yetadi. Ushbu jarayonni tartibli tarzda amalga oshirish professional tarbiya asosi hamda dinamik rivojlanishning garovi ekanligini e’tirof etish kerak.

Sozandalik amaliyotida bu jarayon turli yo‘llar bilan amalga oshirib kelingan. Lekin ularning maqsadi bir ekanligi sababli sozandalar o‘z uslub tanlovi bo‘yicha tanlash huquqiga ega bo‘lganlar. Buning asosiy sababi mukammal ijro bo‘lganligi bois, unga erishishda sozanda oldida bajariladigan vazifa o‘zining turli jihatlari bilan farqlanib kelingan. Maqsad har tomonlama mohirlikka erishish bo‘lganligi uchun ham sozandalikning barcha jihatlarini o‘zlashtirishga asoslangan kasbiy mashqlar o‘zining ahamiyatli tomonlarini namoyon etib kelgan.

Cholg‘u ijrochisining ta’lim olish jarayonidagi asosiy jihatlardan biri ijrochilik texnikasi bo‘yicha puxta hozirlik ko‘rishidir. Dars jarayonida o‘qituvchi rahbarligida muntazam shug‘ullangan holda ijro ko‘nikmalarini takomillashtirib borishi maqsadga muvofiq. Dastlab talabalar amalda ko‘p qo‘llaniladigan ochiq torlar ishtrokidagi gamma va arpedjiolar ustida ishlashi lozim. Pozitsiyalar almashishi usullari, tordan-torga o‘tish va tovush chiqarishning sifati ustida muntazam shug‘ullanishlarini tavsiya etamiz. Applikatura talablariga amal qilgan holda gamma va arpedjiolarni ijro qilish maqsadga muvofiq. Yagona applikatura bilan ikki oktavali gammalarni ijro qilish paytida barmoqlarning o‘rin almashishiga, ketma-ketligiga e’tibor qaratish lozim. Gammalarni o‘zlashtirgandan so‘ng, ularning ohangdorligiga mos etyudlar ijrosiga o‘tish mumkin.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada dutor bas cholg‘usi sozandalarining ijro talqiniga tayyorgarlik qilishlari uchun turli uslublardagi mashqlar tavsiya etilgan. Ijrochi sozandalar o‘z imkoniyatlariga qarab tanlab mashq qilishlari mumkin.

Sozanda cholg‘uni qo‘lga olgandan so‘ng, avvalo cholg‘uning sozini mutanosib holatga keltiradi. Cholg‘u sozlangandan so‘ng mashq jarayoni boshlanadi. Dastlab ikki oktavali gammani butun nota cho‘zimida, ketma-ketlikda uch tovushliklari bilan, tremolo uslubida ijro etishi tavsiya qilinadi. Buning natijasida talaba tomonidan dinamik belgilari ham o‘zlashtiriladi.

## 2.2. Pozitsiya va applikatura.

**Pozitsiya,** lotincha **“positio”-**“holat” degan ma’noni anglatadi[5]. Cholg‘u dastasida chap qo‘l barmoqlarining joylashish holati. Pozitsiya chap qo‘l barmoqlarining yuqori harakatlari nisbati holatiga qarab aniqlanadi.

---

[5] https://my-dict.ru/dic/bolshaya-sovetskaya-enciklopediya/72849-poziciya-v-muzyke/



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Dutor bas cholg‘usida har bir pozitsiya dastada barmoqlarning joylashuviga qarab to‘rt yoki besh pardani qamrab olishi mumkin.

Quyida I, II, III, IV torlarda 1-4-barmoqlarning bir-biriga yaqin joylashuvida kichik tertsiya olish holati:




Dutor basning to‘rtta torida barmoqlarning joylashish holati:




Diatonik tovushqatorning har bitta notasi musiqiy asarlarda uchraydigan alteratsiya belgilari bilan ko‘tarilishi yoki tushirilishi mumkin, bunda chap qo‘l barmoqlarining dastlabki holati pozitsiyada o‘zgarmaydi. Pozitsiyadagi chap qo‘l holati mazkur pozitsiya chegarasidagi tovushlarning zaruriy izchillikda ijro etilishiga imkon yaratadi, chap qo‘l barmoqlarini hech qaerga siljitmagan holda barcha notalar barmoq tagida joylashgan bo‘ladi.

Quyida dutor bas cholg‘usidagi tovushlarning dasstada bir oktavada oralig‘ida joylashish keltirib o‘tamiz:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




Pozitsiyada ijro qilish (bitta pozitsiyada barcha torlarni) oʻzining asosi bilan cholgʻuda kuy chalish texnikasini yengillashtirib, barmoqlar uchun texnikaviy qulayliklar yaratadi. Shu bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega. Masalan, *legato* ijro etilayotganda bitta pozitsiyadagi kuy ijrosi tordan-torga koʻp oʻtishga olib keladi. Buda kuyning ohangdorligi va tembr yaxlitligi oʻzgarishi mumkin. Bu holat dutor basning birinchi tori ichakdan va qolganlari turli yoʻgʻonlikdagi metall simdan boʻlganligi bois yaqqol seziladi. Texnik passajlarga ega musiqiy asarlarni mizrob bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga qoʻllanishi maʼlum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunda talaba murakkab passajlarni aniq va ravon ijrosiga erishishi uchun pozitsiya va applikaturalarini aniq belgilab, shoshmasdan, sekin tempda oʻrganishlari lozim. Barmoqlarni joylashtirishda musiqiy asar mavzusining rivojlanishiga eʼtibor qaratish lozim.

Dutor basning “sol” va “do” torlarida oʻn ikkinchi pardadan keyin tovushlar aniq va ravon sadolanmasligi sababli beshta pozitsiyani qoʻllash maqsadga muvofiq. Talaba musiqiy asarni oʻzlashtirish jarayonida shu jihatlarga eʼtibor qaratib, tovushlarni sifatli sadolanishiga erishishi lozim.

**Applicatura,** nemischa **“applikatur”**, lotincha **applico-**qoʻymoq, bosmoq degan maʼnolarni anglatadi.[6] Cholgʻuda kuy ijro etish jarayonida chap qoʻl barmoqlarning dastada joylashishi va almashish tartibi. Toʻgʻri tanlangan applikatura musiqiy asarni oʻzlashtirishda, yuqori darajadagi ijroga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Torli cholgʻularda ochiq tor 0 raqami va chap qoʻl barmoqlar 1,2,3,4 raqamlar bilan belgilanadi. Har bir etyudni oʻzlashtirishda uning applikaturasini aniqlashga ijodiy yondashish muhimdir. Etyudlarni oʻzlashtirish jarayonidagi tanlangan applikatura uning badiiy xususiyatini ochib berishga yordam berishi lozim. Applikaturani belgilashda musiqa matnining rivojlanishini hisobga olish asosiy omillaridan hisoblanadi.

---

[6] https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Аппликатура



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## 2.3. Ikkita gamma 2 va 3 ta belgili (turli shtrixlarda, ikki oktavada). Mashqlar

Talaba mohir sozanda bo‘lib shakllanishidagi asosiy omillardan biri bu cholg‘u texnikasini mukammal o‘zlashtirishga qaratilganligidadir. Ixtisoslik ustozi bilan sinfda o‘rgangan gamma va mashqlarni mustaqil shug‘ullanish jarayonida diqqat bilan qaytarib, o‘ng qo‘l bo‘g‘imi erkin, yengil harakatlanishiga va chap qo‘l barmoqlarini grifda erkin harakatlanishiga erishish lozim. Gammalar ustida ishlash chap qo‘l barmoqlarini cholg‘u dastasida moslashishida, unda tovushlar joylashish tartibi, ijro texnikasini o‘zlashtirishda yordam beradi. Natijada, tordan-torga o‘tish, chap qo‘l barmoqlarining dastadagi harakatini mukammalashtiradi, gammasimon va arpedjiolangan passajlarni o‘zlashtirishda yordam beradi.

Albatta gammalarni oddiydan murakkabga qarab ijro etish maqsadga muvofiq. Pozitsiyalarning almashish usullari, tordan-torga o‘tish, tovush hosil qilish malakasini egallash lozim. Dastlab yagona applikatura bilan ijro etiladigan gamma va arpedjiolarni o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiq. Yagona applikatura bilan gamma va arpedjiolarni ijro qilish eslashga qulay va pozitsiyalar almashuvi borasidagi bilimlarni mustahkamlaydi.

Yagona applikatura bilan ikki oktavali gammalarni ijro qilish mobaynida barmoqlarning almashish tartibiga qat’iy amal qilish lozim.






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

“Re” major gammasidan so‘ng sozanda ikkinchi bosqichga o‘tishi lozim. Bunda ijro etilgan gammaning uchtovushliklari ijro etiladi. Odatda, har bir tovush aniq, ravon va muayyan sur’atda amalga oshirilishi lozim:

Uchtovushlik



Kvartsekstakkord



Sozandalik amaliyotida qo‘sh tovushlarni tarannum etish ijroga estetik imkoniyatlarni ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Dutor bas cholg‘usida turli intervallarni tarannum etish imkoniyatlari keng.

Qo‘shtovushlarni sof va jozibali talqin etish uchun sozandadan katta mahorat talab etiladi. Quyida sozandaning qo‘shtovushlar ijrosiga mo‘ljallangan gammalar havola etiladi.  Shu gammani ikkita nota (katta seksta intervali oralig‘ida) bilan ijro etish tavsiya etiladi. Bunda ikkala tovush sifatiga, ularning aniq va ravon sadolanishiga katta e’tibor qaratish lozim. Bu mashqda o‘ng qo‘l bo‘g‘imi yumshab, keyingi ijrolarda yengillik yaratiladi. Ijro jarayonida og‘ir sur’atda, shoshmasdan shug‘ullanish maqsadga muvofiq. Gamma yuqoriga harakatlanganda crescendo, pastga harakatlanganda diminuendo dinamikasini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu gammani pozitsiya va applikaturalarini mustaqil aniqlab, taxli qilishlar berilgan. Mustaqil dars dars qilish jarayonida bunga talabadan jiddiyo yondoshish talab qilinvadi:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Uchtovushlik



Kvartsekstakkord



Sozanda-ijrochi yuqorida keltirilgan butun nota hajmidagi gammalarni sabr bilan, shoshmasdan uch tovushliklari bilan to‘liq holda yarim soat mobaynida to‘g‘ri bajarganda, o‘ng qo‘l bo‘g‘imi tordan-torga o‘tishi yengillashadi. Bunda tordan-torga o‘tishda har bir torda ovoz sadolanishining bir me’yorda bo‘lishiga katta ahamiyat qaratish kerak. Bu uslubni mukammal o‘zlashtirilganda legatolik asarlarni o‘rganish jarayonida ijroda qiyinchilik tug‘dirmaydi, tordan-torga yengillik bilan o‘tish texnikasi o‘zlashtiriladi.

“Re” major gammasini butun nota hajmida ijro qilingandan so‘ng, quyida keltirilgan turli cho‘zim va shtrixlarda ijro qilish maqsadga muvofiq:




“Re” major gammasi yaxshilab o‘zlashtirilgandan so‘ng, “Lya” major gammasi parallel minori “fa diez” minorini turli cho‘zim va shtrixlarda alohida-alohida ijro etiladi. “Lya” major gammasi dutor bas cholg‘usida ijro uchun juda qulay gamma. Chap qo‘l barmoqlarining dastada joylashishi ilk mashq jarayonlari uchun mosdir va keyingi mashq va gammalarni o‘zlashtirishda qulaylik yaratadi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

“Lya” major:




“Lya” major gammasi parallel minori “fa diez” minorini yarimtalik cho‘zimda alohida-alohida tremolo usulida ijro qilgandan so‘ng, gammalarning uchtovushlarini ijro qilish loizim. Gamma uchtovushliklarini boshqa sakkiztalik, triol, o‘n oltitali cho‘zimlarda, ya’ni talaba mustaqi ravishda   yarim soat mobaynida shug‘illanishi maqsadga muvofiq:

Uchtovushlik





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



## Kvartsekstakkord



## “Lya” major



## Uchtovushlik



## Kvartsekstakkord





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Uchtovushlik va kavrtsekstakkordni qo‘shib ijro etish o‘ng qo‘l bo‘g‘imlarini va chap qo‘l barmoqlarini tordan-torga o‘tib pozitsiya bo‘yicha harakatlanish malakasini o‘zlashtirishda yaxshi natijalarni beradi. Ijro jarayonida tovushlarning sof, ravon sadolanishiga erishish lozim:



“Fa diez” minor:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



“Fa diez” minor gammasini turli shtrixlarda ijro etgandan so‘ng, uchtovushlarini ham turli shtrixlarda talaba mustaqil o‘rganishi lozim. Major va minor gammalarini muntazam ijro qilish talabaning cholg‘uda ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda, texnik imkoniyatlari rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

O‘quv qo‘llanmada keltirilgan har bir gammalar ijrosidan so‘ng albatta ularning parallel minorlarini ham turli cho‘zimlarda va shtrixlarda ijro etish tavsiya etiladi. Gammalarni ijro qilish jarayonida parallel minorlari bilan ketma-ketligini saqlab qolgan holda shug‘ullanish maqsadga muvofiq.

## 1. Diyezli major gammalar va ularning parallel minorlari:







## 2. Bemolli major gammalar va ularning parallel minorlari:









Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## “Lya” minor, tabiiy



## “Lya “minor, garmonik

Bunda yettinchi pogʻona yuqoriga va pastga harakatlanganda bir ton koʻtariladi:



## “Lya” minor, melodik

Bunda oltinchi va yettinchi pogʻona yuqoriga harakatlanganda bir ton koʻtarilib, pastga harakatlanganda shu pogʻonalar bekar (sof) boʻlib qaytadi:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



## Uchtovushlik



## Kvartsekstakkord



## “Mi” minor, tabiiy:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



“Mi” minor, garmonik



“Mi” minor, melodik



Uchtovushlik





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Kvartsekstakkord



Gammalar, uchtovushliklarni tremolo uslubida va har xil shtrixlarda ijro etgandan so‘ng o‘ng qo‘l bo‘g‘imi va chap qo‘l barmoqlari bir oz qizib, murakkablashib boradigan mashqlar ijrosiga tayyordir. Quyida keltirilgan mashqlar o‘ng qo‘l bo‘g‘imi hamda chap qo‘l barmoqlarini etyudlar va texnik jihatdan murakkab asarlarni ijro etishda yengillik yaratadi. 1-4 mashqlar dutor basning 4 ta torida bajariladi va mashq ijrosidan so‘ng chap qo‘l barmoqlari uchun texnik jihatdan murakkab bo‘lgan asarlarni ijro qilishda yengillik yaratiladi. Ijro jarayonida har bir tovushni aniq, sof va ravon sadolanishiga e’tibor qaratish lozim.

1-mashq. “Lya” torida



2-mashq, “Re” torida





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



3-mashq, “Sol” torida



4-mashq, “Do” torida



5-mashqda har bir hissada tordan-torga o‘tiladi va bunda o‘ng qo‘l bo‘g‘imi hamda chap qo‘l barmoqlarining ijroda tordan torga o‘tish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda katta yordam beradi:

5-mashq





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




6-9 mashqlar ham dutor basning 4 ta torida bajariladi. Bu yuqoridagi 1-4 mashqlarning murakkablashgan variantidir. Mazkur mashqlarda chap qo‘lning 2-3-4-barmoqlarining texnik jihatidan o‘sishiga, dastada erkin haraktlanish malakasini o‘zlashtirishga qaratilgan. Mashqda yuqori pardadan 5/8 o‘lchamda orqaga qaytishda 2-3-4-barmoqlar uchun texnik jihatdan murakkab bo‘lganligi sababli imkon qadar notalarni sof, aniq va ravon sadolanishiga ahamiyat berilishi lozim. 3-4 daqiqa dam olib, bu mashqlarni takrorlash tavsiya qilinadi. Quyida keltirilgan mashqni 25-30 daqiqa mobaynida takrorlash  maqsadga muvofiq:

6-mashq, “Lya” torida





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## 7-mashq, “Re” torida



## 8-mashq, “Sol” torida





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



## 9-mashq, “Do” torida





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Tavsiya qilingan mashqlarni yaxshilab oʻzlashtirib olingandan soʻng, toʻrtta torda toʻxtamasdan tez sur’atda ijro etish maqsadga muvofiq.

Soʻnggi mashqimiz yuqorida keltirilgan mashqlarni yaxshi oʻzlashtirgandan soʻng bajarish tavsiya etiladi. Har bir taktda tordan-torga oʻtish, texnik jihatidan oʻng qoʻl boʻgʻimi va chap qoʻl barmoqlari uchun qiyin boʻlgan ritmik jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu mashq ijrosida talabadan tordan-torga oʻtishda notalarning aniq, sof, ravon sadolanishiga, oʻn oltitalik notalarni ritmik jihatidan tekis ijro etilishiga e’tibor qaratish lozim. Oʻquv qoʻllanmada keltirilgan barcha mashq va gammalarda yuqoriga harakatlanganda *crescend*o va orqaga qaytishda *diminuend*o dinamikasini qoʻllash maqsadga muvofiq.

10-mashq



Mashqlarni ijro etish jarayonida chap qoʻl barmoqlari pardadan imkon qadar yuqori koʻtarilmasligi, oʻng qoʻl boʻgʻimining amplitudasi ya’ni, uning mediator bilan pastga va yuqoriga harakatlari qisqa boʻlishiga e’tibor qaratish lozim. Ushbu uslubiy



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

tavsiyalar murakkab bo‘lgan yirik shakldagi musiqiy asarlarni ham badiiy texnik jihatdan ijro etishda sozandaga qulaylik yaratadi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiya rivojlanganligini inobatga olgan holda, talaba ushbu mashqlar hamda gammalarni ijro jarayonida yozib olib eshitib, xato va kamchiliklari ustida ishlashi lozim. Bu jarayon notaga yozilgan mashqlarni eshitib o‘zlashtirish yuqori saviyadagi ijrochilik ko‘nikmalarini egallashda yordam berish bilan birga, talabaning eshitish qobiliyatini rivojlantirib, musiqiy tafakkurini kengaytiradi.

Ushbu o‘uv qo‘llanmaga muallif o‘zining ko‘p yillik pedagogik va ijrochilik tajribasiga asoslangan holda dutor bas uchun maxsus moslashtirilgan va yozilgan etyudlarini kiritgan. Har bir etyudda dutor bas cholg‘usining pozitsiya va applikaturalari, barmoqlarning joylashishi, diapazoni aniq keltirilgan. Mashg‘ulot jarayonida bu pozitsiya va applikaturalarni har bir sozanda o‘z ijro imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi ham mumkin.

Etyudlarni ijro etish jarayonida uning badiiyligiga erishish uchun dinamik belgilarga qat’iy rioya qilish lozim. Musiqa dinamikasini yanada boyitishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunday holatlarda asarning dinamik talqiniga ijodiy yondashish lozim. Mustaqil ishlash, asarni nazariy jihatdan tahlil qilish, pozitsiya, applikaturalar ustida ishlash, mashqlarni-etyudlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalarda har qanday asarga o‘z munosabatini bildirish va shaxsiy topilmalarini vujudga keltirish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Musiqiy cholg‘ularni o‘rganish, o‘zlashtirishni ta’lim tizimida joriy etish, ushbu jarayonning muayyan tartibda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratib beradi. Sozandalik sohasida mukammallikka erishishda zarur bo‘lgan texnik, estetik va badihaviy ijro mahoratlarini oshirib borishda tizimlangan uslubiy mashqlarning ahamiyati kattadir. Ta’lim jarayonini tartiblash, bosqichma-bosqich texnik imkoniyatlarini rivojlantirib borish, badihaviy va erkinlik jihatlarini shakllantirish sozandalikdagi mukammallik sifatlari garovidir.





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## 2.4. Turli xarakterdagi etyudlar va ularning ijro tahlili

Ushbu o‘quv qo‘llanmaga muallif ko‘p yillik pedagogik va ijrochilik tajribasiga asoslangan holda jahon xalqlari kompozitorlarining violonchel cholg‘usi uchun yozgan etyudlarni moslashtirgan, kompozitor Sherzod Sobirovning ikkta etyudi hamda muallifning dutor bas uchun maxsus o‘zi bastalagan beshta etyudi kiritilgan. Etyudlarda dutor bas cholg‘usining pozitsiya va applikaturalari, barmoqlarning joylashishi, diapazoni aniq keltirilgan. Mashg‘ulot jarayonida bu pozitsiya va applikaturalarni har bir sozanda o‘z ijro imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi ham mumkin.

Etyudlarni ijro jarayonida uniing badiiyligiga erishish uchun dinamik belgilarga qat’iy rioya qilish, musiqiy mavzular dinamikasini yanada boyitishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunday holatlarda etyudlarning dinamik talqiniga ijodiy yondoshish lozim. Mustaqil ishlash, etyudlarni nazariy jihatdan tahlil qilish, pozitsiya, applikaturalar ustida ishlash, etyudlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalar o‘z munosabatini bildirish va shaxsiy topilmalarini vujudga keltirish ko‘nikmalarini yuzaga keltiradi.

O‘quv qo‘llanmada kiritilgan bir nechta etyudlarda talabalarga musiqiy kalitlarni o‘zlashtirish bo‘yich olgan bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida tenor va skripka kalitlaridan ham keng foydalanildi.

### D.Popper - “Etyud № 1”

Etyud “sol” major tonalligida, 3/8 o‘lchovida, yozilgan. Ushbu etyud o‘zing badiiy qiymatiga ega bo‘lgan mashqlar qatoriga kiradi. Uning musiqiy matnida nafaqat o‘n oltitaliklar, balki sakkiztalik va choraktalik notalar mavjud bo‘lib, unda muayyan melodik mavzu har tomonlama rivojlanadi. Kuychan, ohangdor, relefsimon matoga ega bo‘lgan ushbu etyud kichik pyesa janrida yaratilgan bo‘lib, ijrosi hamda tinglovchiga badiiy-estetik ta’sirini o‘tkaza oladi.

Etyud bir qismli kompozitsiyani tashkil qiladi. Uni shartli ravishda ikki bo‘limga bo‘lish mumkin. Bunda ikkala bo‘lim ham bir hildagi mavzu bilan boshlanib, o‘zgacha rivojlanadi. Rivojlanish jarayonida ko‘p sonli diatonik sekvensiya qatorlarini uchratish mumkin. Bunday sekvension rivojlanish ijrochining barmoq texnikasini to‘g‘ri ishga solish mexanizmini yuzaga keltiradi:



Asarda “sol”minor va “fa” major og‘ishmalarini uchratish mumkin. Bunda yangi alteratsiya belgilari paydo bo‘lishi kuzatiladi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Shubhasiz bu turdagi tonal o‘zgarishlar musiqiy matoga rang-baranglik olib kiradi. Etyudning ovoz diapazoni ikki oktavadan ortiq bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktavadagi “do”dan birinchi orktavadagi “re”ga qadar rivojlanadi.

## F.Kummer - “Etyud № 2”

Etyud “mi” minor tonalligida, 3/8 o‘lchovida yozilgan. Uning musiqiy matni punktir ritmga asoslangan bo‘lib, asarning boshidan oxiriga qadar ushbu ritm saqlanib qoladi.

Asar kuychan, ohangdor, relyefsimon mavzuga ega bo‘lib, kichik pyesa janrida yaratilgan. Ijrochiga ham, tinglovchiga ham badiiy-estetik ta’sirini o‘tkaza oladi.

Etyud bir qismli kompozsiyani tashkil etadi. Uni shartli ravishda ikki bo‘limga bo‘lish mumkin. Bunda ikkala bo‘lim ham bir xildagi mavzu bilan boshlanib, o‘zgacha rivojlanadi. Rivojlanish esa aynan sekvension prinsipda amalga oshirilgan. Etyudning mavzusi ham skvensiya qatorlaridan tashkil topadigan. “Mi” minorning tonikasida qurilgan mavzuning birinchi takti ikkinchi taktda subdominanta pog‘onalarida, uchinchi taktda esa bir oktava balanddagi tonika pog‘onalarida takrorlanib, yuqoriga intilgan harakatni to‘ldirish uchun to‘rtinchi takt pastga tomon pog‘onama-pog‘ona yuradi.




Beshinchi va oltinchi taktlar navbatdagi sekvensiya qatorlarining yuzaga kelishini ta’minlaydigan mavzudur. Uning natijasida uchta sekvensiya qatori paydo bo‘ladi. Keyin esa, mavzuga oid taktga qisqartirilib, rivojlanishda davom etadi. Undan so‘ng mazkur mavzularning shakli o‘zgarib, yana sekvension rivojlanishni kuzatish mumkin. Keyingi keladigan to‘rt takt ikkinchi bo‘limga kirish vazifasini o‘tab, ular ham sekvensiya qatorlaridan tashkil topgan.

Ushbu etyudning sekvensiyalardan iborat ekanligini anglagan talaba asarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarni sezmaydi. Etyudning musiqiy mavzusida birgina “re” majorga bo‘lgan og‘ishmalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, uning tarkibida garmonik va melodik lad, qo‘sh dominanta akkordlarini ham uchratamiz.

Etyudning ovoz diapazoni ikki oktavadan ortiq bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktavadagi “mi”dan birinchi oktava “sol”ga qadar rivojlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## F.Gryusmaxer - "Etyud № 3"

Etyud "sol" minor tonalligida, 3/8 oʻlchovida yozilgan. Mazkur etyud oddiy mashq sifatida talqin etilsada, uning oʻziga xos badiiy timsoli mavjud. Avvalam bor, u mantiqan rivojlanadigan garmonik musiqiy mavzu asosida qurilgan. Bu xildagi garmonik rivojlanuv va tonal munosabatlar tizimi asarning badiiy qiymatini belgilabgina qolmasdan, balki ijrochining musiqiy didini tarbiyalaydigan tamoyillariga ham ega. Etyudning musiqiy matnida aks etadigan garmonik tuzilmalar gorizontal holatda ifodalangan boʻlib, mavzu muayyan garmonik akkordning tovushlari boʻylab harakatlanadi.

Etyud oddiy uch qismli shaklda yozilgan. Har bir qism boshlangʻich mavzu bilan boshlanib, oʻziga xos ravishda rivojlanadi. Birinchi qismda mavzuning oʻtishidan "si" bemol majorda davom etadi. Shundan keyin keladigan matn asosiy tonallik boʻlgan "sol" minorga modulyatsiyani amalga oshirib, etyudning ikkinchi qismida namoyon boʻladigan mavzuning kirishini ta'minlaydi. Bu vaqtda "sol" minorning melodik holatiga asosiy e'tibor qaratiladi. Birinchi qismning oxirida ritenuto sababli musiqiy sur'atning sekinlashishiga e'tibor berish zarur:




Ikkinchi qism a tempo sur'atida boshlanib, boshlangʻich sur'atga qaytish kerak ekanligini bildiradi. Ikkinchi qismda mavzu yana oʻz ifodasini topib, birinchi qismdagi kabi toʻlqinsimon harakatlanib rivojlanadi. Bu yerda "mi" bemol major, "lya" bemol major, "si" bemol major, "do" minor tonalliklariga ogʻishmalar kuzatiladi.

Asarning uchinchi qismi dinamik repriza vazifasini bajaradi. Ushbu qismda repriza oʻziga xos ravishda namoyon boʻlib, bu yerda yakuniy qism sifatida oʻz xarakterini gavdalantiradi:




Bunda repriza shartli ravishda uch jumlaga boʻlinib, uning birinchi jumlasida avtentik tuzilma, T-DD-D, ikkinchi jumlada plagal tuzilma, ya'ni T-S, uchinchi jumlada esa turgʻunlikni aks ettirgan holda tonikaningt oʻzi ishtirok etadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Etyudning so‘nggida sur’atning ikki marta o‘zgarishini ko‘rish mumkin. Avvaliga rallentando atamasiga ko‘ra sur’atning vazminlashib, kengayishi, so‘ngra esa, a tempo atamasiga asosan sur’atni yana boshlang‘ich holatga qaytishi kuzatiladi. Bu yerda sur’at o‘zgarishlari ko‘p hollarda badiiy asarlarda ko‘p uchraydi. Mazkur etyuddagi bu holatning mavjudligi ushbu ko‘nikmani yanada ko‘proq o‘zlashtirilishiga yordam beradi:




Etyudning oxiridagi “sol” tovushi pizzicato ijro uslubida ijro etiladi. Asosi relefsimon melodik ravishda rivojlangan etyud o‘zining yakunida dominatna va tonikaga mansub to‘rt ovozli akkordlar bilan yakunlanadi. Bunday uslub etyudga yanada mukammal tugallanganlik xarakterini beradi.

Etyudning ovoz diapazoni uch oktavagacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktavadagi “do”dan birinchi oktava “si” bemolga qadar rivojlanadi.

### Z.Turapov - “Etyud № 4”

Etyud “si” minor tonalligida, 2/4 o‘lchovida, Allegro sur’atida yozilgan. Etyudning asosiy mavzusi quvnoq xarakterda bo‘lib, uning rivoji pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga qarab harakatlanadi. Mazkur etyudning musiqiy mavzusi sakkiztalik xromatik tovushlardan tashkil topgan bo‘lib, chap qo‘l barmoqlarini pardaga o‘rnashish texnikasini rivojlanishida yordam beradi. Dastlab etyudning alteratsiya belgilarini diqqat bilan o‘rganib, tahlil qilib, har bir nota toza sadolanishiga e’tibor qaratish lozim:




Birinchi takt sakkiz marta takrorlanib, to‘qqizinchi taktdan “re” toriga, “sol” toriga, “do” toriga va yana xromatik tarzda yuqoriga tordan-torga o‘tib harakatlanadi:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




Ushbu etyudni shoshmasdan, tordan-torga o‘tganda tovushlarning sof, ravon sadolanishiga e’tibor qaratish lozim.

Yuqori parda ikkinchi oktava “re”da yana xromatik tarzda tordan-torga o‘tib pastga qarab harakatlanadi:




Mashq jarayonida chap qo‘l barmoqlari hamda o‘ng qo‘l bo‘g‘imining sinxron harakatlanishiga katta e’tibor berib, diqqat bilan o‘zlashtirgan holda ko‘zlagan maqsadga erishiladi.

Etyudning ovoz diapazoni katta oktava “fa” diyezdan ikkinchi oktava “re”gacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi.

## R.Sapojnikov - “Etyud № 5”

R.Sapojnikov bastalagan ushbu etyud “do” major tonalligida, 4/4 o‘lchovida yozilgan. Uning musiqiy mavzusida mavjud bo‘lgan xilma-xil cho‘zimlar etyudning melodik yo‘lini jozibador ohangli bo‘linishga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Etyudning asosiy elementi-bu passajlardir. Shunga ko‘ra, ushbu etyudni aynan passaj edementlarini o‘zlashtirishga qaratilgan mashq sifatida tavsiya qilinadi. Zero, har qanday ijrochi bisotida mavjud bo‘lgan asarlar orasida passajlar katta o‘rin egallaydi.

Etyudning boshida keladigan ikki takt umumiy rivojini belgilab beradi. Sababi ushbu ikki taktda o‘z ifodasini topgan melodik-ritmik figura keyingi mavzuda ham to‘laligicha saqlanib qolib, ayrim hollarda variatsion xarakterdagi o‘zgarishlar uchraydi:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Musiqiy mavzuning harakati, uning to‘liqsimon relyefga ega ekanligini kuzatish mumkin. Har bir yuqoriga bo‘lgan harakat qarama-qarshi ravishda pastga tomon bo‘lgan harakat yuqoriga yurish bilan to‘ldiriladi.

Ushbu etyudda legato ostiga olingan stakkato belgilarini ko‘rish mumkin:



Ushbu usul etyud yakuniga qadar o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, etyudda bir xil notalarning legato ostiga olinishi ham ko‘p uchraydi. Demak, uning sanog‘iga ham e’tibor qaratish lozim. Zero, cho‘zimning har bir mayda hissasini sezib, anglab ijroga yondashish maqsadga muvofiq.

Etyudning mavzusida qiziqarli tonal munosabatlarni uchratish mumkin. Uning rivojlanish jarayonida “do” majorga nisbatan birinchi darajali qardosh tonalliklar orasiga kiruvchi “sol” major, melodik “lya” minor, “fa” majorga sodir etilgan og‘ishmalar bilan bir qatorda, uzoq tonallik bo‘lgan “re” bemol majorga ham og‘ishma kuzatiladi. Ushbu tonal o‘zgarish etyudning so‘nggi taktlarida amalga oshirilib, unga jozibali bo‘yoq olib kiradi. Mana shu “re” bemol majordagi passajga tegishli qilib nota matnida allargando atamasi qo‘yilgan, ya’ni kengaytirib ijro qilish kerak. Ijro vaqtida atamalarga e’tibor qaratish lozim:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## Yu.Dotsauer - “Etyud № 6”

Etyud “lya” minor tonaligida, 6/8 o‘lchovida yozilgan. Musiqiy matnida faqat sakkiztalik cho‘zimlar mavjud bo‘lib, etyudning katta qismini egallaydigan asosiy element arpedjiodir. Shunga ko‘ra, ushbu etyudni aynan arpedjio elementini o‘zlashtirishga qaratilgan mashq sifatida tavsiya etiladi. Etyudda melodik yo‘l uchramaydi. Unda musiqaning asosiy elementlaridan bo‘lgan faqat garmonik mavzu va ritmni kuzatish mumkin. Garmonik mavzu melodik ravishda, ya’ni yoyilgan holda namoyon bo‘ladi. Etyud aynan garmonik tuzilmasi bilangina badiiylik kasb etadi.

Etyuddagi ohang harakati muayyan garmoniyaning tovushlari bo‘ylab yuqoriga va harakati bilan ifodalanadi. Ohanglarda garmonik tovushlar bilan bir qatorda akkorddan tashqari tovushlar ham uchraydi va bular musiqiy mavzudagi garmonik harakat orasida melodik iborani vujudga keltirishga yordam beradi:



Etyud Barokko davrida yakka cholg‘ular uchun yaratilgan turkum shakllar tarkibiga kiruvchi musiqiy asar uslubida yaratilgan bo‘lib, cholg‘uning keng diapazronini egallaydi. Bunday uslubda asarlarni ijro etishda bir oz sur’at erkinlikka yo‘l qo‘yish, ya’ni bas tovushlarini cho‘zibroq, shoshmasdan ta’kidlagan holda, yuqori tovushlarni esa tezroq va yengilroq ijro etish maqsadga muvofiqdir. Bunday erkinliklar oddiy mashqqa jozibadorlik baxsh etib, uning timsoliy badiiylik qiymatini yanada oshiradi.

Musiqiy matosida “lya” minorga nisbatan birinchi darajali qarindoshlikda bo‘lgan “sol” major, “do” major, “fa” major, “re” minor tonallilariga og‘ishmalar kuzatiladi. Bunday o‘tishlar chog‘ida vositachi, alteratsiyalangan tovushlarni ko‘rish mumkin:




O‘z navbatida garmonik o‘zgarishlar musiqiy mavzuning nihoyatda mukammal va silliq rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Talabaning bunday matn bilan ishlashi uning musiqiy didiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Etyudning musiqiy matni mufassal ravishda rivojlangan. Takrorlanuvchi jumlalar kuzatilmaydi. Biroq uning jarayonida sekvension rivojni koʻrish mumkin. Etyudning askariyat qismi xromatik sekvensiya qatorlarini tashkil etadi. Bu esa yuqorida ta’kidlangandek, Barokko davriga xos boʻlgan asosiy xususiyatlardan biridir.

Etyudning ovoz diapazoni ikki oktavadan ortiq boʻlgan oraliqni oʻz ichiga olib, katta oktavadagi “lya”dan birinchi oktavadagi “re”ga qadar rivojlanadi.

## M.Osokin - “Etyud № 7”

Etyud “do” major tonalligida, 4/4 oʻlchovida yozilgan. Mazkur etyudning musiqiy matni oʻn oltitalik tovushlardan tarkib topgan boʻlib, virtuoz ijro texnikasini oʻzlashtirishda qoʻllaniladigan mashq sifatida ijro etishda tavsiya etiladi.

Etyud nihoyatda shoʻx va jozibali, harakatchan, ijro uchun u qadar murakkablik kasb etmaydi. Har bir tovushning ikki martadan qaytarilishiga tuzilgan ushbu mashq melodik-garmonik yoʻlning rang-barangligini ifoda etishga qaratilgan. Bir ovozlik melodik mavzuda aks etgan etyud tarkibida “lya” minor, “sol” major, “re” minor, “sol“ minor tonalliklariga ogʻishmalar kuzatiladi



Bu xildagi tonal munosabatlar mantiqan amalga oshirilganligi etyudni oʻzlashtirayotgan sozanda-ijrochining tinglash tajribasiga ijobiy ta’sir koʻrsatadi va musiqiy didini tarbiyalaydi.

Etyudning musiqiy matnda mashqlarga xos boʻlgan sekvension rivojlanuv jarayonlari yaqqol koʻzga tashlanadi. Koʻp hollarda bunda sekvension harakatlar muayyan bir akkord tovushlarini birma-bir ifodalash yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Asarning mufassal shaklda rivojlangan deyish mumkin. Musiqiy mavzu etyudning boshida bir necha martda yangragani bois rivojlanuv jarayonida boshqa qaytarilmaydi. Buning oʻrniga mavzuga munosib melodik-garmonik rivojlanuv vujudga keladi.

Etyudning ovoz diapvzoni ikki oktavadan ortiq boʻlgan oraliqni oʻz ichiga olib, katta oktavadagi “do”dan birinchi oktava “re”ga qadar rivojlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## G.Kayzer - “Etyud № 8”

Etyud “si” minor tonalligida, 4/4 oʻdchovida yozilgan. Etyud sakkiztalik choʻzimlarning ikkitadan oʻn oltitalikka parchalanishi bilan ifodalangan boʻlib, oʻng qoʻl boʻgʻimini texnk jihatdan rivojlantirshida tavsiya qilinadi.

Etyud oddiy ikki qismli shaklda yozilgan boʻlib, ikkala qism ham bir xil boshlangʻich mavzu bilan boshlanib, oʻzgacha rivojlanadi:



Birinchi qismda mavzu ikki jumlali davriya shaklida yozilgan. Tonal jihatdan ushbu davriya “si” minordan “re” majorga sodir etilaligan modulyatsiyalikdir. Davriyaning keyingi rivoji “re” majorda ifodalanadigan bir taktli ibora bilan boshlanib, ushbu ibora sekvensiyali ravishda sekunda intervaliga siljib yuqoriga tomon rivojlanadi. Mazkur sekvensiya zanjiri toʻrt qatorni tashkil etadi, soʻng, musiqiy mavzu arpedjio tovushlari boʻylab pastga, asosiy tonallikka qaytadi. Aynan shu yerda “si” minorda ifodalanadigan ibora paydo boʻlib, u ham sekvensiyali ravishda sekunda intervaliga pastga tomon harakatlanadi. Birinchi safar sekvensiya diatonik koʻrinishda aks etgan boʻlsa, ikkinchi safar esa sekvensiya xromatik tarzda namoyon boʻladi. Bunda “si” minor” - “lya” minor- “sol” minor tonal munosabatlari kuzatiladi. Ushbu sekvensiya zanjiri uch qatorni tashkil etgandan soʻng asosiy tonallikka modulyatsiya yuz beradi.

Etyudning ikkinchi qismi yana boshlangʻich mavzu bilan boshlanadi. Birinchi qismdan farqli oʻlaroq, davriyaning birinchi jumlasi bir oktava pastda namoyon boʻladi.



Bu yerda mavzu oʻn bir taktgacha kengayib “do” majorga qisqa muddatli ogʻishmani amalga oshiradi va asosiy tonallikka qaytadi. Ikkinchi qism yakunlovchi xarakterga ega. Unda “si” minor melodik holatda namoyon boʻladi. Shu bilan birga, bu qismda, asosan, tonika va dominantaning almashib kelishni kuzatish mumkin. Bu esa yakunlovchi musiqiy bayon xarakterini aks ettiradi.

Etyudning ovoz diapazoni ikki oktavadan ortiq boʻlgan oraliqni oʻz ichiga olib, katta oktavadagi “sol”dan ikkinchi oktava “re”ga qadar rivojlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## R.Sapojnikov - "Etyud № 9"

Etyud "lya " minor tonalligida, 4/4 oʻlchovida yozilgan. Etyudning musiqiy matni xromatizm prinsipiga asoslangan holda rivojlanadi. Undagi musiqiy mavzu triollar aosisida aks etgan boʻlib, ushbu shiddatli harakat asarning oxiriga qadar rivojlanib boradi:



Etyudning mavzusi "lya" notasidan boshlanib xromatik ravishda goh yuqoriga, goh pastga, avval kichik (tersiya, orttirilgan kvarta) keyin kattaroq (oktava) intervallarigacha boʻlgan oraliqarda harakatlanadi va sakkiz taktli mavzuning diapazoni kengaygan holda namoyon boʻladi.

Etyudning musiqiy matni oddiy uch qismli shakldа yozilgan. Uning uchala asosiy qismi mavzu bilan boshlanib, oʻziga xos rivojlanadi.

Etyudning ikkinchi qismida aks etadigan asosiy mavzu bir oktava pastda oʻz ifodasini topgan. Bunday xildagi mashq ijrochining kasbiy texnik mahoratini oshirib, muayyan bir mavzuni har xil registrlarda ijro eta olish koʻnikmasining vujudga kelishiga yordam beradi. Musiqiy matnda xilma-xil xromatik tarzda namoyon boʻlgan sekvension harakatlarni kuzatish mumkin.

Etyudning uchinchi qismida mavzu bir nechta registrda harakatlanadi. Ya'ni, avval katta oktavada, keyin kichik oktavada, soʻngra esa birinchi oktavada aks etib, ikkinchi oktavaning "lya" tovushiga qadar yuqoriga harakatlanadi:



"Lya" tovushidan soʻng musiqiy mavzu xromatik tovushqator boʻylab uch takt mobaynida pastga harakatlanib, katta oktava "lya" ga kelib toʻxtaydi. Mazkur qism etyudnning reprizasini bajarish bilan birga, unga munosib yakun yasagan holda oʻzining kulminatson nuqtasi boʻlgan ikkichi oktavadagi "lya" tovushiga yetib borib, diapazonni toʻliq namoyish etadi. Musiqiy mavzu toʻlqinsimon relyefga ega. Uning ijrosida yana sayqal berish maqsadida har bir toʻlqinsimon harakat chogʻida dinamikaning oʻsishi va soʻnishiga katta e'tibor qaratish kerak.

Etyudning ovoz diapazoni uch oktavali oraliqda oʻz ichiga olib, katta oktavadagi "lya"dan ikkinchi oktavadagi" lya"ga qadar rivojdanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## Z.Turapov - “Etyud № 10”

Etyud “sol” minor tonalligida, 4/4 o‘lchovida yozilgan bo‘lib, o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan hamda mayda texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishda katta yordam beradi. Mazkur etyud chap qo‘l barmoq texnikasini hamda o‘ng qo‘l bo‘g‘imini texnik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi. Etyudda o‘n oltitalik tovushlarning pastga va yuqoriga qarab rivojlangan gammasimon harakatlarni kuzatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida chap qo‘l barmoqlarini to‘g‘ri va mantiq bilan, chaqqon ishlatishni bilishga, o‘ng qo‘l bo‘g‘imi amplitudasini texnik imkoniyatlarini rivojlantirishda, shuningdek, chap va o‘ng qo‘l orasidagi artikulyatsiyani faollashtirish ko‘nikmasini oshirishda samarali yordam beradi:



Musiqiy mavzudagi ijro usullariga qarab etyudni shartli uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda “sol” minorning dominantasiga tegishli “re” tovushi kvartsekstakkord uchtovushligi bilan boshlanadi va yuqoriga yo‘nalgan gammasimon harakatlar kuzatiladi. Bundagi musiqiy mavzu diatonikaga asoslanadi.

Ikkinchi qism katta oktava “re” hamda kichik oktava “re” tovushlarining oktava sadolanishi orqali chap qo‘l barmoqlarini hamda o‘ng qo‘l bo‘g‘imini sinxron harakatlanishida, texnik imkoniyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi:



Uchinchi  qism kichik oktava “re” tovushini doimiy jaranglab turishi bilan ikkinchi oktava “fa” tovushigacha va orqaga ditaonik harakat sozandadan katta mahorat talab qiladi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




Yakunlanishida “sol” minor uch tovushliklari va akkord bilan yakunlanadi.

Etyudning ovoz diapazoni uch yarim oktavani oʻz ichiga olib, katta oktava “re” dan ikkinchi oktava “fa”ga qadar rivojlanadi. Shunga koʻra, etyud dutor basning toʻrtta torida ijro imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.

## C.Li - “Etyud № 11”

Etyud “sol” minor tonalligida, 3/4 oʻlchovida yozilgan. Etyud oʻn oltitalik choʻzimlar bilan ifodalangan. Etyudning musiqiy matnda xromatizmlar katta oʻrin egallagan. Mazkur etyud xromatik tovushqatorni hamda xromatik ravishda xarakterlanish koʻnikmasini oʻzlashtirishda tavsiya etiladi:



Etyud oddiy uch qismli shaklda yozilgan. Uning birinchi qismi mavzuni aks ettirib, davriya shaklida tuzilgan. Etyudning musiqiy matni xromatik asosda boʻlishiga qaramay uning konturidagi garmonik xarakterni anglab olish mumkin. Masalan, mavzu sakkiz taktdan iborat tuzulmani tashkil etib birinch va ikkinchi taktlar tonikani, uchinchi va toʻrtinchi taktlar subdominantani, beshinchi va oltinchi taktlar dominantani, yettinchi va sakkizinchi taktlar esa yana tonikani aks ettiradi. Bu holatni har bir taktning urgʻuli hissalarini ifodalovchi tovushlar qiyofasida



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

ko‘rish mukin. Bu xildagi musiqiy mavzu orqali talabaning musiqiy-ijrochilik tajribasi yanada ortadi, musiqiy mavzulardagi melodik yo‘lni yoki garmonik tuzilmani eshita bilish qobiliyatini rvojlantiradi.

Etyudning ikkinchi qismi rivojlansh bo‘lib, xarakterga xos bo‘lgan tonal tourg‘unliklar kuzatiladi. Ikkinchi qism “si” bemol major tonalligida boshlanib, har bir taktda yangi tonallik namoyon bo‘ladi. Ya’ni, “mi” bemol major, “lya” bemol major, “fa” major, “re” minor tonallklariga og‘ishmalar kuzatiladi. Ikkinchi qism oxirida ritenuto atamasi qo‘yilgan. Bu esa repriza oldidan musiqiy sur’atning sekinlashuvini bildiradi:




“Re” major tonalligining yuzaga kelishi reprizaning asosiy tonallikda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi

Uchinchi qism-repriza. U a tempo sur’atida bo‘lib, asosiy sur’atiga qaytishni bildiradi. Repriza statik, ya’niy aniq takrorlashda o‘z ifodasini topgan:




Etyudning ovoz diapazoni ikki oktavadan iborat bo‘lib, katta oktava “sol”dan birinchi oktava “sol”ga qadar rivojlanadi.

## L.Shpor - “Etyud № 12”

Violonchel uchun bastalagan ushbu etyud “sol major” tonalligida, 2/4 o‘lchovida yozilgan. Etyud o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan ushbu etyud mayda texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishga qaratilgan.

Etyud oddiy uch qismli shaklda yozilgan. Uning birinchi qismi mavzusi yakka jumlali davriya shaklidan iborat. Davriya diatonik ladda o‘z ifodasini topgan.

Etyudning ikkinchi qismi diatonikadan farqli o‘laroq xromatik tarzda rivojlanadi. Shu bilan birga bu bo‘limda yuqori va pastga harakatlangan gammasimon yurishlar mavjud:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Ushbu bo‘lim rivojlansh bo‘limi bo‘lgani bois, bu yerda “re” major va melodik “si” minor tonalliklariga o‘tishlart kuzatiladi. Uning so‘nggida asosiy tonallik bo‘lgan “sol” major yana qaror topib reprizaga qaytish uchun zamin yaratadi.

Etyudning repriza qismi oddiy shakillarga xos bo‘lmagan holda uzaygan. Uning birinchi jumlasi aniq takrorlangandan so‘ng, ikkinchi jumladan boshlab o‘zgarishlarga yuz tutadi. Avvalam bor ushbu reprizani rivojlantiruvchi repriza deyish mumkin. Chunki, bunda asosiy mavzuni o‘ziga xos rivojlantirish uslubi tanlangan. Bunday rivojlanuv jarayonida xromatizm, sekvensiya qatorlarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, “re” major, “si” minor, “do” major, “mi” major tonalliklariga og‘ishmalar ham paydo bo‘ladi.

Etyudning yakunlovchi bo‘limida asosiy tonallik bo‘lmish “sol” major qaror topib, asar o‘z yakuniga yetadi:



Etyudning ovoz diarpazoni ikki oktavadan ortiq bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktavadagi “re” birinchi oktava “sol"ga qadar rivojlanadi.

**R.Sapojinikov - “Etyud № 13”**

Violonchel uchun bastalagan ushbu etyud “re” minor tonalligida, 4/4 o‘lchovida yozilgan. Etyudning musiqiy matni asosan o‘n oltitalik tovushlar bilan guruhlangan triollardan iborat bo‘lib, mayda texnik mahorat ko‘nikmasini rivojlantirishda tavsiya etiladi.

Musiqiy matnga e’tibor bilan qaralsa, unda melodik ustun hamda garmonik fundament vazifasini bajaruvchi ikki yo‘lni ko‘rish mumkin. Mana shu yuqori va pastki ovozlarning orasini boshqa yordamchi va o‘tkinchi tovushlar to‘ldirib turadi. Masalan, birinchi taktda yuqorida joylashgan “fa” tovushini melodik yo‘l, pastda joylashgan “re” tovushini esa garmonik fundament sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘ladi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Aynan shu yo‘l bilan mazkur etyudning ijro badiiyligiga erishi mumkin. Bunda shu ikki ovozni bo‘rttiribroq ijrol qilish maqsadga muvofiq.

Etyudning musiqiy matni asosan sekvension rivojlanish prinsipiga asoslanadi. Shunga ko‘ra mavzu yoki uning iboralarini turli registrda namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

Musiqiy mavzuda “re” minordan tashqari, parallel tonallik bo‘lgan “fa” majorga tomon yuz beradigan og‘ishmalar mavjud. Asarning o‘rta qismi esa butunlay “re” majorda, alteratsiya belgilar rasman o‘zgargan holda o‘z ifodasini topadi. “Re” majorda to‘rt takt davom etadi. So‘ngra musiqiy mavzu yana asosiy tonallikka qaytib alteratsiya belgilari ham “re” minorga xos ravishda o‘zgaradi:




Ikki taktdan so‘ng asarning reprizasi keladi. Bunda boshlang‘ich mavzu bir oktava pastda yangrab, yuqoriga tomon harakatlanadi. Repriza tuzulishiga ko‘ra, qisqargan bo‘lib, olti taktni o‘z ichiga oladi. Uning ikkita so‘nggi takti tonika va dominantaning gammasimon tovushqatori asosida qurilgan iboraning sekvension tarzda har xil oktavalarda uch martda takrorlanishi bilan tugaydi. Eng so‘nggi nuqta to‘rt ovozli “re” minor akkordi orqali aks etgan.

Etyud sur’atining bir necha martda o‘zgarishini kuzatish mumkin. Jumladan, o‘rta qismi birinchi qismning oxirida yuz beradigan ritenuto orqali asosiy tempda paydo bo‘ladi. Uning davomida keladigan rivojlanuv jarayonida “meno” sur’at belgisi paydo bo‘ladi. O‘rta qismning yakuniy tovushlariga ham ritenuto hamda fermata bilan ifodalangan:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Bunday sur’at oʻzgarishalar koʻp hollarda badiiy asarlarda koʻp uchraydi. Ammo mazkur etyudda bu holatning mavjudligi ushbu koʻnikmani yanada chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Etyudning ovoz diapazoni uch oktavadan ortqi boʻlgan oraliqni oʻz ichiga olib, katta oktavadagi “re”dan ikkinchi oktava “fa”ga qadar rivojlanadi.

**Z.Turapov - “Etyud № 14”**

Etyud “Lya” major tonalligida 4/4 oʻlchovida, Allegro sur’atida yozilgan. Mazkur etyudning musiqiy mavzusi sakkiztalik tovushlar bilan guruhlangan triollardan tarkib topgan boʻlib, virtuoz ijro texnikasini oʻzlashtirishda katta yordam beradi. Etyud mukammal oʻrganilgandan soʻng, oʻng qoʻl boʻgʻimi bilan chap qoʻl barmoqlarining sinxron ravishda harakatlanishiga erishiladi.

Etyudning asosiy mavzusi quvnoq xarakterda boʻlib, uning rivoji pastki oktavadan yuqoriga, yuqori oktavadan pastga qarab harakatlanadi. Boshlanishida “lya” majordan “re” majorga, “mi” minorga ogʻishmalarni kuzatish mumkin:



Triollarning oktavaga sakrab yana pastga harakatlangan passajlari chap qoʻlning grifda mohirlik bilan, erkin harakatlanishni oʻzlashtirishda yordam beradi:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Bunda tovushlarning aniq, ravon va sof sadolanishiga erishishga katta e’tibor qaratish lozim. O‘n beshinchi va yigirma to‘rtinchi taktlarda 4/4 dan 2/4 ga o‘lchov o‘zgaradi va bunda sozandadan katta e’tibor talab qilinadi. Sanoqdan sanoqqa o‘tish tekis, ravon davom ettiriladi.

Etyudning ovoz diapazoni uch oktavagacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktavadagi “lya”dan ikkinchi oktava “lya”ga qadar rivojlanadi.

**S.Lyapunov - “Etyud № 15”**

Etyud “re” major tonalligida, 4/4 o‘lchovida yozilgan. Tugallangunga qadar o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan bo‘lib, mayda texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishda tavsiya etiladi.

Musiqiy matni gammasimon harakatlanishga asoslangan. Etyud mufassal ravishda rivojlanadigan shaklni tashkil etadi.

Etyudning musiqiy mavzusida muayyan kuy ham, garmoniya ham kuzatilmaydi. Buning o‘rniga ko‘p sonli tonal o‘zgarishlarni, “sol” major, “lya” major tonallilariga yuz beradigan modulyatsiyalarni kuzatish mumkin. Shuning asosida, musiqiy mavzuda yangi alteratsiya belgilari paydo bo‘ladi.



Etyud sozanda-ijrochida tonallikdan tonallikka ravon o‘ta bilish ko‘nikmasning o‘zlashtirishda katta yordam beradigan mashqlar qatoriga kiradi. Shuningdek, u ijro texnikasini virtuoz darajada o‘sishida yordam beradi. Bundan tashqari, etyudning musiqiy mavzusi sekvensiyali tamoyilda rivojlanganini ko‘rish mumkin. Bunday sekvensiyali rivojlanish asarning oxirida yaqqol namoyon bo‘lib, “lya” tovushidan boshlanadigan tovushqator sekunda intervali bo‘ylab harakatlanadigan diatonik sekvensiya zanjirini tashkil etadi:



Etyudning ovoz diapazoni uch oktavadan ortiq bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktava “re”dan ikkinchi oktava “mi”ga qadar rivojlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## R.Sapojniokov - “Etyud № 16”

Etyud “sol” major tonalligida, 4/4 o‘lchovida yozilgan va asosan o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan bo‘lib, texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Uning musiqiy matnda ikki ovozlikni kuzatish mumkin. Bunda birinchi-yuqori ovoz ohang ravishda harakatlansa, ikkinchi-pastki ovoz dominanta va tonikaning asosiy tovushini ifoda etuvchi organ punkti chifatida namoyon bo‘ladi.



Ushbu etyudni ijro mahoratiga tegishli bo‘lgan texnik usullar jihatidan ikki bo‘limga bo‘lish mumkin. Birnchi zona 1-13 taktlar. Unda musiqiy mavzuning yuqori ovozga tegishli bo‘lgan melodik yo‘l o‘n oltitalik cho‘zimlar yordamida faqatgina tayanch (birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi) hissalarning birinchi cho‘zimi (o‘n oltitalik)ga to‘g‘ri keladi. Qolgan tovushlar pastki ovozni ifodalaydi. Bunday mashqni bajarishda o‘ng qo‘l bo‘g‘imi cholg‘uning ikki torini sadolantiradi. Yuqori ovozni ifodalaganda yuqori torni, pastki torni ifodalaganda pastki torni chertish lozim. Bunday holda ijrochining o‘ng qo‘l bo‘g‘imi aksariyat vaqt pastki torda bo‘ladi. Etyudning ikkinchi zonasi 14-taktdan to oxiriga qadar davom etadi. Bunda esa yuqori va pastki ovozning teng ifodasi taqsimlangan. Ya’ni, o‘n oltitalik cho‘zimlar to‘rttadan bo‘lim hissalari bo‘yicha guruhlanganda yuqori ovoz yo‘li har bir guruhning birincha va to‘rtinchi cho‘zimiga to‘g‘ri keladi. Pastki ovoz esa ikkinchi va uchinchi cho‘zimda aks etadi:



Shuning bilan yuqori ovoz, ya’niy melodik yo‘lning faollashuvi kuzatiladi. Bunda o‘ng qo‘l bo‘g‘mining ham harakati ancha murakkablashadi. Bu usulni o‘zlashtirishda chog‘ida ochiq simlarda mashq qilish yuqori samara beradi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Ijro jarayonida notalarning sof va ravon sadolanishiga erishish lozim. Mavzu yuqoriga va pastgan harakatlanganda dinamik belgilar (crescendo, diminuendo)dan to‘g‘ri foydalanish maqsadga muvofiq.

Mazkur etyudning ovoz diapazoni uch oktavani tashkil qilib, katta oktava “sol”dan ikkinchi oktava “sol”ga qadar rivojlanadi. Etyud pizzicato uslida ijro etiladigan to‘rt ovozli sol major akkordi bilan yakunlanadi.

### N.Baklanova - “Etyud № 17”

Etyud “sol” minor tonalligida, 4/4 o‘lchovida, Allegro moderato sur’atida yozilgan. Etyud o‘n oltitalik cho‘zimlar bilant ifodalangan. Musiqiy matni oddi uch qismli reprizali shakilda yozilgan. Uning mavzusi ikki taktli iboradan tashkil topgan bo‘lib, bu mavzu sekvensiyali ravishda rivojlanadi. Etyudning musiqiy matnda muayyan kuy yo‘li kuzatilmaganligi bois, mavzu asosan garmonik tomondan rivojlangan. Garmoniya gorizontal ravishda o‘z ifodasini topgan. Etyudning taktidagi asosiy turg‘un tovush o‘z atrofidagi yordamchi tovushlar vositasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ikkinchi taktda mavzu tonika akkordi tovushlari bo‘ylab harakatlanadi. Etyudning birinchi qismida “do” minor, “re” minor tonallilariga qisqa muddatli og‘ishmalar kuzatiladi.




Etyudning o‘rta, ya’ni ikkinchi qismi ikkinchi raqamdan boshlanadi. U “si” bemol tonalligida boshlanib, sekvensiyali rivojlanadi:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Bu vaqtda sekvensiya sekunda intervali bo‘ylab harakatlanadi va “do” minor, “re” minor, “mi” bemol major, “mi” minor, “fa” major, “re” major, “sol” minor, “lya” minor va “lya” major orqali asosiy tonallikni dominantasi bo‘lgan “re” majorga yetib keladi. Bunda musiqiy mavzuning tuzilishi shundaki, ikki taktli ibora sekvensiyali rivojlanuv mobaynida yarim taktli ibora shakligacha qisqarib takrorlanadi. Shu yo‘l bilan intensiv rivojlanuv xarakteriga erishiladi.

Beshinchi raqamdan repriza boshlanadi va u bir oktava yuqorida namoyon bo‘ladi:



Etyudning ovoz diapazoni uch oktavagacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktava “sol”dan ikkirchi oktava “fa”ga qadar rivojlangan. Ijro davomida taktlarida keltirilgan “ritenuto” atamasiga e’tibor qaratgan holda musiqiy sur’atning sekinlashishini amalga oshirish zarur.

## S.Li - “Etyud № 18”

Etyud “mi” minor tonalligida, 3/8 o‘lchovida yozilgan. Etyud o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan. Oddiy mashq sifatida yaratilgan bo‘lishiga qaramay, uning musiqiy mavzusi o‘ziga xos badiiy qiymatga ega. “Mi” minor tonalligida ushbu etyudning boshqa tonal munosabatlari ham kuzatiladi. Unda “Do” major, “Sol” major, “Lya” major, “si” minor tonalliklarda yuz beradigan og‘ishma va modulyatsiyalarni ko‘rish mumkin. Bunday tonal o‘zgarishlar garmonik jihatdan puxta va mantiqan to‘g‘ri amalga oshirilgan. Shu bilan birga, bunday tonal munosabatlar chog‘ida applikaturaning qulayligi kuzatiladi:





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Mazkur etyud o‘n olti taktli mavzudan so‘ng mufassal ravishda rivojlanuvchi musiqiy mavzuda yozilgan. Etyudning mavzusi muayyan intervallarga melodik yurish natijasida shakllangan bo‘lsa, mavzuning keyingi rivoji mobaynida uchtovushlik akkordlarning tovushlari bo‘ylab amalga oshiriladigan melodik harakatlarni ko‘rish mumkin. Bu xildagi mashqlar talabaning arpedjiolar, akkordlarni ijro etish ko‘nikmasini o‘zlashtirishga katta yordam beradi.



Mavzudan keyin keladigan sakkiz taktda musiqiy mavzu melodik akkordlarning yuqoriga tomon yechilishiga asoslanadi. Undan keyin keladigan mavzuda esa akkordlar yuqoriga va ko‘zgusimon ravishda pastga harakat qiladi. Rivojlanuv bo‘limiga tegishli bo‘lgan ushbu o‘ttiz ikki takt akkordlar vositasida namoyon bo‘ladi.

Keyingi rivojlanish  jarayonida musiqiy mavzu melodik intervallarga yurish bilan ifodalanadi. Bu bo‘limda xromatik sekvensiyalarning to‘rtta qatorini kuzatish mumkin. Bu bo‘limda xromatik sekvensiyalar “sol” major, “lya” major, “si” minor, “do” major tonalliklariga tegishli. Sekvensiyalar birin-ketin kelar ekan, ularni *poco poco cresendo* yordamida sekin-asta tovushni kuchaytirib yangrashishiga erishish lozim:




Sekvensiyalardan keyin keladigan musiqiy mavzu asosiy tonallik_hisoblangan “mi” minor tomon harakatlanib, uning dominantasi bo‘lmish “Si” major tonalligida aks etadi. Etyudning musiqiy mavzusida repriza kuzatilmaydi. Buning o‘rniga tonal repriza keladi. Ya’ni, “mi” minor qayta gavdalanadi. Ushbu repriza so‘nuvchi xarakterga ega bo‘lib, pog‘onama-pog‘ona pastga tomon harakat qilib, dutor basning katta oktava “mi” tovushida o‘z nihoyasiga yetadi. Etyudning oxirgi takti “mi” akkordining pizzicato usuli orqali ijro etish bilan yakunlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




Etyudning musiqiy mavzusi melodik yurishlardan tashqari, *repetittsion*, ya’ni, ko‘p bora takrorlanuvchi tovushlardan tuzilgan. Asarni ijro yetish mobaynida ushbu tovushlarning takrorlanuvchi elementlar sifatida yemas, balki melodik yo‘lni to‘ldiruvchi vosita sifatida qabul qilinishi kerak. Shundagina asar o‘zining badiiy qiymatga yega bo‘ladi.

Etyudning ovoz diapazoni ikki yarim oktava oralig‘ida rivojlanib, katta oktava “mi”dan birinchi oktava “lya”ga qadar davom yetadi.

### D.Dotsauer - “Etyud № 19”

Etyud “lya” minor tonalligida, 3/4 o‘lchovida yozilgan. O‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalangan bo‘lib, texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishda tavsiya etiladi. Bundan tashqari o‘ng va chap qo‘l orasidagi o‘zaro muttanosibliklar aynan shu etyudda ko‘rstilgan mashq orqali charxlanadi.

Ushbu etyudning musiqiy matni asosiy tonallikdan boshqa tonal munosabatlari ham kuzatiladi. Unda “re” minor, “do” major, “fa” major, “si” bemol major, “mi”majorga bo‘lgan og‘ishmalar kuzatiladi. Shunga ko‘ra, musiqiy mavzuda ko‘plab yangi alteratsiya belgilari uchraydi. Ijro vaqtida ushbu alteratsiya belgilarining aniq ifoda etilishiga alohida e’tibor qaratish lozim:






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

Etyud asosan garmonik minorda yozilgan bo‘lib, ijro jarayonida uning melodik ko‘rinishi ham uchraydi.

Etyudning musiqiy matni bir qarashdayoq uning sekvensiyasimon rivojlanishiga asoslanganini ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, asarni o‘rganish chog‘ida uni tahlil qilib, sekvensiya qatorlarini aniqlab olish ijrochiga qator qulayliklar tug‘diradi. Etyuddagi sekvensiyalar bir-biridan melodik shakli bilan farq qiladi.

45-taktdan etyudning reprizasi boshlanib, asarning boshlang‘ich mavzusi takrorlanadi hamda asarni tonallikka qaytarib olib kiradi:




Shuningdek, uning rivoji asarga munosib yakun yasaydi. Etyudning oxiridagi ikkita takt oldiga qo‘yilgan ritenuto sur’at belgisiga e’tibor qaratish lozim.

Ijro jarayonida chap qo‘l barmoqlari applikaturasi bilan bir qatorda, crescendo va diminuendo belgilari e’tibor qaratish lozim. Ijrochi e’tiborining nafaqat chap qo‘lig, balki, o‘ng qo‘liga ham qaratishi muhim ahamiya kasb etadi. Bu belgilarga asarni o‘rganishning ilk bosqichidayoq e’tibor qaratish kerak.

Mazkur etyud oddiy sekvensiyasimon mashq sifatida tuzilgan bo‘lsada, ijrochi uning ichidan badiiy qiymatini topa olishi zarur. Bu esa, oddiy mashqning ichida yashrin joylashgan melodik yo‘lni topish va uni ijroda bo‘rttirib ko‘rsatishdan iborat. Etyudda yashirin tovushlar aksent bilan belgilab ko‘rsatilgan. Ushbu tovushlarga alohida urg‘u berish natijasida mashqning melodik yo‘li namoyon bo‘ladi va musiqiy mavzuda rang-baranglik hosil bo‘ladi. Etyudning ovoz diapazoni ikki yarim oktava oralig‘ida rivojlanib, katta oktava “lya”dan birinchi oktava “do”ga qadar davom etadi.

## Z.Turapov - “Etyud № 20”

Etyud “si” tovushidan xromatik mashq sifatida, 3/8 o‘lchovida yozilgan bo‘lib, cholg‘uda texnik murakkabliklarni o‘zlashtirishda tavsiya etiladi. Ushbu etyud - mashq uslubida yaratilgan bo‘lishiga qaramay, o‘ziga xos badiiy qiymatga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Uning musiqiy mavzusi xromatik asosda tuzilgan bo‘lib, to‘rt qismga bo‘linadi. Ijroda dutor basning to‘rtta toridan foydalaniladi. Mavzu qaysi torda boshlansa, shu torda oxiriga yetkaziladi. Birinchi qism kichik oktava “si” toridan ikkinchi oktava “re” toriga qadar xromatik tarzda yuqoriga qarab harakatlanadi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Ikkinchi oktava “re” tovushidan 5/8 o‘lchamida pastga qarab harakatlanadi. Quyida keltirilgan misolni qunt bilan, shoshmasdan o‘zlashtirish maqsadga muvofiq. Etyudning ushbu qismi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarni texnik imkonyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi:



Ikkinchi qismda musiqiy mavzu kichik oktava “mi” tovushidan birinchi oktava “sol” tovushiga qadar rivojlanib boradi:



Musiqiy mavzu pastga qarab harakatlanganda ritmik sur’ati 5/8 o‘lchamiga o‘zgarib, yuqorida aytganimizdek ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarni texnik imkoniyatlarini oshiradi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022



Ikkinchi qism katta oktava “lya” tovushidan kichik oktava “do” tovushiga qadar rivojlanib boradi:



To‘rtinchi qismi katta oktava “re” tovushidan kichik oktava “fa” tovushiga qadar harakatlanadi va ritmik sur’at 5/8 ga o‘zgaradi.



Etyudni yakunlashgacha tovushlarning aniq, sof, dona-dona sadolanishiga erishish kerak.

Etyudning ovoz diapazoni uch yarim oktavani o‘z ichiga olib, katta oktava “re” dan ikkinchi oktava “re”ga qadar rivojlanadi. Shunga ko‘ra, etyud dutor basning to‘rtta torida ijro texnikasini oshirishda tavsiya etiladi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## F.Gryusmaxer - “Etyud № 21”

Etyud “do” major tonalligida, 4/4 oʻlchovida yozigan. Mazkur etyudning musiqiy matni oʻn oltitalik tovushlardan iborat boʻlib, chap qoʻl barmoqlari texnikasini rivojlantirishda tavsiya etiladi.

Etyud ijro uchun ancha murakkab darajada boʻlib, keng koʻlamlidir. Undagi musiqiy mavzu intensiv ravishda rivojlanib, yirik diapazon boʻylab harakatlandi. Shu bilan birga, uning tarkibida “re” major, “mi” bemol major, “mi” major, “lya” major, “re” minor, “sol” minor, “si” bemol major, “si” major tonalliklariga ogʻishmalar kuzatiladi. Bu esa, musiqiy mavzuning yangi alteratsiya belgilarining paydo boʻlishi va tinmay oʻzgarib turishiga olib keladi:



Etyud shaklida toʻrtta boʻlim kuzatiladi. Shu bilan birga uni oddiy uch qismli shakl sifatida ham baholash mumkin. Toʻrtinchi boʻlim esa yakun vazifasini bajaradi.

Birinchi qism toʻrt takt davom etib, unda mavzu diatonika tarzda rivojlanadi. E’tibor berib qaralsa mavzuning oʻzi bir taktli iboradan tuzilgan boʻlib, ushbu ibora sekvension ravishda turli xil balanliklarda takrorlanib, rivojlanadi. Ushbu sekvesion qatorlar orasidagi masofa avvaligi tersiya intervalini tashkil etsa, soʻng sekunda boʻyicha harakatlanadi. Oʻn birinchi taktdan boshlab yana boshqa bir musiqiy mavzu vujudga kelib, u ham sekvensiya boʻyicha pastga harakatlanadi:




Etyudning ikkinchi qismi yana boshlangʻich mavzuda boshlanib, xromatik tamoyili tarzida rivojlanadi. Shu bois uning musiqiy mavzusi bir nechta tonallikka yuz beradigan oʻtishlarni kuzatish mumkin. Ikkinchi boʻlimda ham sekvension rovojlanish asosiy oʻrin egallaydi.

Uchinchi qism-repriza. Unda etyudning birinchi qismi aniq tarzda takrorlanadi.

Yakunlovchi qismda etyudga xotima sifatida asar rivojining xromatikaga asoslangan, ammo, sof xromatizm holatiga kirmaganni bois “do” major xromatik tovshqator koʻrinishida namoyon boʻladi. Ushbu xromatik gamma ikki yarim oktava yuqoriga chiqib yana pastga qaytadi:



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022




Shundan so‘ng, musiqiy mavzu tonikasidagi arpedjio holatini ifodalaydi. Garmonik jihatdan esa, bu bo‘limda asosan dominanta va tonikaning ketma-ketligi asarga yakunlash xarakterini beradi.

Etyudning so‘nggi taktlarida poco rallentando sur’at belgisini ko‘rish mumkin. Ushbu atamaga ko‘ra, sur’atni sekinlashtirish, vazminlashtirish darkor.

Etyudning diapazoni ikki yarim oktavadan ortiq bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olib, katta oktava “do”dan, birinchi oktava “lya” bemolga qadar rivojlanadi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## 2.5. Kompozitorlar hayoti va ijodi.[7]

**David Popper.** Chex kompozitori, mohir sozanda-violonchel cholg‘usi ijrochiisi, pedagog, Budapesht konservatoriyasi professori. Praga konservatoriyasini Yu.Golterman sinfida tamomlagan. 1843 yili 9-dekabrda Praga shahrida tug‘ilgan,



1913 yilning 7-avgustda Avstriyaning Baden shahrida vafot etgan. Konsert ijrochilik faoliyatini 1863 yili Germaniyadan boshlagan va nemis kompozitori, dirijyori, pianisti, pedagog Gans fon Byulovaning olqishiga sazovar bo‘lgan. 1886 yilgacha F.List, I.Brams, A.G.Rubinshteyn taribidagi ansamblda faoliyat olib borgan. O‘z davrining boshqa mashhur ijodkorlari S. Menter, A. N. Esipova, O.Nedbal, F. Ondrjichek, E. Xubai va L. Auerlar bilan ijodiy hamkorlik qilgan.

Ijroda sof, yuqori saviya va texnik mahorati yuksakligi bilan alohida ajralib turgan. D.Popper violonchel uchun yozilgan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar muallifidir. Pedagogik amaliyotida uning cholg‘uda ijrochilik mahoratini oshirish uchun mo‘ljallangan 40 etyudi keng qo‘llanild. Mashhur “Hohe Schule des Violoncellspiels” darsligi shular jumlasidandir va hozirda o‘z mavqeiga ega.

**Fridrix Avgust Kummer.** 1797-yili 5-avgust kuni Germaniyaning Mayningen shahrida musiqachilar oilasida tug‘ilgan. Violonchelchi, o‘qituvchisi va bastakor. Drezden konservatoriyasi professori. 1879-yil 22-avgust kuni vafot etgan. Bolaligida



uning oilasi otasining taklifiga binoan Drezdenga ko‘chib keladi va saroy kapellasida goboy cholg‘usi sirlarini o‘rgana boshlaydi. Goboy cholg‘usini o‘rganib yurgan kezlarda violonchel cholg‘usiga qiziqib qoladi va taniqli ijrochilar Fridrix Dotzauer va Bernxard Rombergdan tahsil oladi. 1814 yili Karl Mariya fon Veber Kummerni Qirollik opera teatriga violonchelchi etib tayinladi.

1839 yilda Kummer **“Violoncelloschule für den ersten Unterricht”** (“Violonchelda chalishni oldindan o‘rganish maktabi”) darsligini yozadi va ushbu kitob hozirgi kunda ham o‘z mavqeiga ega. Kompozitor sifatida ko‘plab kamer kuylar, konsertlar, fantaziyalar, goboy va klarnet uschun konsertlar muallifi.

7 Kompozitorlar haqidagi ma’lumotlar internet tarmoqlaridan olindi. **QR**lar orqali batafsil ma’lumot olish mumkin.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Fridrix Vilgelm Lyudvig Gryusmaxer.** Nemis violonchelchi, oʻqituvchi va kompozitori. 1832-yil 1-mart kuni Gemaniy aning Dessau shahrida tavallud topgan. 1903-yil 23-fevral kuni vafot etgan. Oʻz davrining mashhur violonchel cholgʻu



ijrochisi, kompozitori. Yu.Dotsauerning oʻquvchisi K.Dreksle rdan violonchel cholgʻusi boshlangʻich saboqlarini olgan. Shu bilan birga, u Germaniya va boshqa Evropa mamlakatlarida, shu jumladan Rossiyada (1878, 1884) solist sifatida kontsertlar berdi. Virtuoz texnikaga, goʻzal ifodali ovozga ega edi. Uning ijrosi qat'iy akademik uslub bilan ajralib turgan.

Leyptsig (1850-1860) va Drezden (1860-1902) konservatoriyalarida professor boʻlib, koʻplab taniqli violonchel cjolgʻu ijrochilarga saboq berdi va yuqori malakali shogirdlar tayyorladi. Ular orasida oʻzining ukasi Leopold Gryusmaxer, E.Hegar, V.Fitsenhagen, H.Bekker, B. Vilfert va boshqalar. U J.S.Bax, L.Bokersh, J.Tartinilarning violonchel uchun yozilagn asarlarini, B.Romberg kontsertlari, L.Betxoven, F.Mendelson, A.G.Rubinshteyn sonatalari, shuningdek, J.Gaydnning skripka sonatalarining violonchel uchun moslashtirgan hamda birinchi ijrochisidir. Oʻzi bastalagan (konsertlar, spektakllar, eskizlar) asarlar faqat pedagogik ahamiyatga ega boʻlgan. F. Gryusmaxer "Oliy violonchel chalish maktabi"ni tuzgan ("Die hohe Schule des Violoncellespiels", 1891).

**Roman Exillovich Sapojnikov.** Roman Exillovich Sapojnikov (1903-1987) - rus violonchelchi, metodist va musiqa oʻqituvchisi. Chaykovskiy nomidagi Moskva konservatoriyasi aspiranturasida oʻqib yurgan davrida R.Glier nomidagi bolalar



musiqa maktabida mehnat faoliyatini boshlagan. Koʻp yillik murabbiylik faoliyat mobaynida koʻplab shogirdlar tarbiyalab yetishtirdi. Musiqa maktablari oʻquvchilari uchun violonchel chalish boʻyicha darsliklar, violonchel va fortepiano uchun koʻplab transkripsiyalar, jumladan, "Volonchel chalish maktabi" turkumi muallifi.

"Violonchel chalishning dastlabki koʻnikmalarini shakllantirish usuli" (M.: 1962), "Gammalar, arpejjiolar, violonchel uchun intervallar: mashqlar tizimi" ( M . 1963, 1977 va 1980), "Violonchel chalishni oʻrgatish metodikasi asoslari" (M .1967), "Violonchel uchun pedagogik repertuar" ( M . 1967), "Violonchel chalishni boshlash" (M . 1978) ilmiy-uslubiy ishlari hozirgi kunda ham oʻz mavqeyini saqlab qolgan



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Yustus Iogann Fridrix Dotsauer.** 1783 yil 20 yanvarda Hildburghausen yaqinidagi Heselrit shahrida musiqachisi oilasida tug‘ildi. 1860 yil 6 mart kuni Drezdenda vafot etgan. Bolaligidan u turli cholg‘u, shu jumladan vilionchel cholg‘usida ijro qilishni o‘rganadi. 1799-1801 yillarda Mayningen shahrida Iogann Yakob Krigk sinfda tahsil oldi. 1806 yilda u malaka oshirish uchun Berlinga boradi va u yerda Bernxard Romberg rahbarligida cholg‘u sirlarini o‘rganadi. Bir muncha vaqt Leypsigda yashab, ijod qiladi. Gevandxaus orkestrida va Gevandxaus kvartetida (1808 yil kuzidan) Geynrix Avgust Mattei rahbarligida faoliyat olib boradi.



Dotsauer birinchi navbatda o‘qituvchi sifatida o‘z davrining yetuk mutaxassisi bo‘lgan va hozirda mashhur bo‘lgan bir nechta mashqlar to‘plamlarining muallifidir. “Violoncellschule” ( Op. 165, 1832), “18 exercices ďune difficulté progressive (Op. 120), “24 täglichen Studien zur Erlangung der Virtuosität (Op. 155b), “Schule des Flageolettton” (Op. 147) shular jumlasidandir. Dotsauer sinfda tahsil olgan o‘z davrining mashhur cholg‘uchilaridan Fridrix Avgust Kummer, Karl Shubert, Karl Dreksler keltirib o‘tish mumkin.

**Mixail Alekseevich Osokin.** 1903 yil 17 sentyabrda Tula viloyatining Krapivna shahrida tug‘ilgan. 1995-yil 29-avgustda vafot etgan. Kompozitor. Turli janrlardagi ko‘plab musiqiy asarlar muallifi. Musiqa maktabida dastlab F.V.Zeke sinfida tahsil olgan. 1925-1928 yillarda A. Skryabin nomidagi Moskva musiqa texnikumida A.V. Aleksandrov, G. L. Katoire, S. N. Vasilenkoda. K. S. Sarajev sinfda tahsil oldi. Moskva konservatoriyasida kompozitsiyadan An.N.Aleksandrov va S. N. Vasilenko sinfda, dirijyorlik bo‘yicha K.S.Saradjev, L. P. Shtaynberg, L. M. Ginzburg sinfida nomzodlik imtihonlarini topshirdi. 1921-1925 yillarda Orel simfonik orkestri sozandasi sifatida faoliyat oli b bordi.



1928-1937 y.y. Moskva, Balashova, Bryansk va Voroshilov shaharlarida o‘zining pedagogik faoliyatini olib boradi. 1941-1948 y.y. Turkmaniston musiqa kolleji o‘qituvchisi, Ashxobod kinostudiyasi orkestri dirijyori. 1949-1960 y.y Gnesin nomidagi institut o‘qituvchisi hamda Davlat musiqa nashriyoti muhariri. 1963-1965 y.y. Moskva madaniyat institutining “Musiqa nazariyasi va tarixi” kafedrasi mudiri. Rus va hind musiqasi haqidagi ko‘plab maqolalar muallifi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Genrix Ernst Kayzer.** Geynrix Ernst Kayzer 1815 yil 16 aprel kuni Germaniyaning Gamburg shahrida tug'ilgan, 1888 yil 17 yanvar kuni Gamburg shahrida vafot etgan. Nemis skripkachisi, altchisi, pedagog va bastakor. Ko'plab cholg'ular uchun musiqiy asarlar muallifi. G.Kayzer o'zining skripka uchun mashqlar va etyudlari bilan mashhur. Ushbu nashr elementar progressiv etyudlarning eng mashhurlariidan biridir. To'plam musiqa ta'lim muassasalarining barcha torli bo'g'imlari talabalari, shuningdek, ushbu cholg'uda ijro etish texnikasini rivojlantirmoqchi bo'lgan cholg'u ijrochilariga mo'ljallangan.



Tanlangan asarlar: klarnet (yoki skripka) va viyola uchun B♭-majorda duet, Op. 2; Skripka uchun 36 etyud, Op. yigirma; klarnet va viola uchun duet konserti, Op. 27 (1865); Neueste Methode des Violinspiels, Op. 32; 4 Skripka sonatalari, Op. 33; Viola uchun 36 etyud, Op. 43; Nouvelle methode d'alto (Yangi Viola usuli, Neue Schule für Bratsche), Op. 54 (taxminan 1880 yilda nashr etilgan); 4 Kinder-Sonatinen, Op. 58.

**Sebastian Li.** XIX asrning mashhur nemis violonchel cholg'uchi ijrochisi. 1805-yil 24-dekabrda Germaniyaning Gamburg shahrida tug'ildi va 1887-yil 4-yanvar kuni vafot etdi. O'z davrining mashhur violonchel cholg'usi sozandalari - Luii Lee va va pianinochi Morits Leening ukasi. U akasi kabi Iogann Nikolaus Prelldan tahsil olgan. 1830 yildan Leypsig, Kassel va Frankfurt shaharlarida o'zining konsert ijrochilik faoliyatini boshlaydi.1832 yil Parijdagi "Italiya operasi orkestiri" solisti sifatida mehnat faoliyatini davosm ettiradi.



1836 yil u Londonda gastrol - konsert safarlarida bo'ladi. 1837-1868 yillarda Parij shahrida joylashgan mashur "Opera Garnier" orkestrida sozanda, 1841-1843 yillarda solist sifatida mehnat faoliyatini olib boradi va ko'plab yakkaxon konsertlar beradi. 1845 yilda Parij konservatoriyasida dars bergadi va violonchel bo'yicha darslik (fratsuzcha "Méthode pratique pour le violoncellue" nashr qilgan. Ushbu darslik xalqaro miqyosda tan olingan va hozirda ham o'z mavqeyiga ega. Bu darslikning ruscha nashri P.Yurgenson tomonidan chop etilgan. Shuningdek, u ikkita violonchel uchun bir qator duetlar, fantaziyalar va variatsiyalarni nashr etdi. 1868 yilda u Gamburgga qaytib keldi va shu yerda o'z mehnat faoliyatini davom ettiradi.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Lyudvig Shpor.** XIX asr nems skripka maktabining asoschisi. L.Shpor 1784 yil 5 aprelda Germaniyada tavallud topgan. 1959 yili vafot etgan. Uning otasi shifokor bo‘lib, musiqani juda yaxshi ko‘rar va fleytani yaxshi chalar, onasi esa klavesin chalar



edi. Shporning musiqiy qobiliyati erta namoyon bo‘ldi. “Tiniq soprano ovozim bor edi, – deb yozadi kompozitor o‘z tarjimai holida, “Men birinchi marta qo‘shiq aytishni boshladim va to‘rt-besh yil davomida onam bilan oilaviy kechalarimizda duet kuylashimga ruxsat berildi. Bu vaqtga kelib, otam mening qizg‘in istagimga bo‘ysunib, yarmarkada menga skripka sotib oldi, men tinimsiz shug‘illana boshladim” deb xotiralaydi kompozitor.

Bolaning iqtidorini payqagan ota-onasi uni fransuz emigranti, havaskor skripkachi Dyufurga o‘qishga yuborishdi, lekin tez orada Brunsvik gersogi orkestrining konsertmeysteri bo‘lgan professional o‘qituvchi Mokurga topshirdilar.

Shpor musiqa tarixiga operalar, simfoniyalar, konsertlar, kamer va cholg‘u asarlar yozgan atoqli skripkachi va yirik kompozitordan hisoblanadi. Ayniqsa, uning skripka konsertlari mashhur bo‘lib, klassik va romantik san’at o‘rtasidagi bog‘liqlik janrining rivojlanishida xizmat qildi. Opera janrida Veber, Marshner va Lortzing bilan birgalikda milliy nemis an’analarini rivojlantirdi.

**Sergey Mixaylovich Lyapunov.** Rus kompozitori, dirijyori, pianinochisi. 1859 yil 18 noyabr Yaroslavl shahrida tug‘ilgan, 1924 yil 8 noyabr Parij shahrida vafot



etgan. Rus kompozitori Lyapunov Sergey Mixaylovich zodagonlar oilasida tavallud topgan. 1868 yilda otasining vafotidan so‘ng Lyapunov onasi va ikki ukasi bilan Nijniy Novgorodga ko‘chib kelishadi. Bo‘lajak kompozitor bolaligidan musiqaga qiziqqan, ammo tizimli tadqiqotlar faqat 1874 yilda Nijniy Novgorodda Rossiya musiqa jamiyati filialining ochilishi bilan boshlangan.

1878 yilda Nikolay Rubinshteynning tavsiyasiga ko‘ra Lyapunov Moskva konservatoriyasiga fortepiano bo‘yicha o‘qishga kiradi. 1883 yili konservatoriyani tugatdi va bir muncha vaqt o‘tgach, u Miliey Balakirev bilan uchrashdi va uni Sankt-Peterburgga kelishga taklif qildi. Balakirev rahbarligida Lyapunov o‘zining birinchi yirik kompozitsiyalarini yozdi, “Moguchaya kuchka” kompozitorlari bilan yaqindan tanishadi.

Oliy darajali pianinochi sifatida Lyapunov yuqori murakkablikdagi fortepiano uchun ko‘plab kompozitsiyalar yartdi, ular orasida eng mashhurlari Frants Liszt xotirasiga bag‘ishlangan “Yuqori mahoratli o‘n ikkita etyud”dir.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

**Natalya Vladimirovna Baklanova** Natalya Vladimirovna Baklanova 1897 yilda Kupavinskaya to‘quv fabrikasi egasi Vladimir Nikolaevich Baklanov oilasida tug‘igan. 1980 yili vafot etgan. Uning otasi skripkada ijro ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, rasm



chizgan va musiqa bastalagan. 1920 yilda Rossiyada bo‘lgan qiyinchilik davrida uning otasi vafot etadi. Natalyaning onasi Aleksandra Ivanovna Reshetnikova qo‘shiq kuylagan, pianino chalgan va bir muncha vaqt teatr aktrisasi bshlib faoliyat olib borgan. Ikki opa-singil - Olga va Lyudmila qo‘shiq aytish va pianino chalishni o‘rganishgan. Ukasi Gleb Moskva konservatoriyasi professori K.G.Mostras sifida skripka chalishni o‘rgangan. Butun oilaning yuksak madaniy saviyasi va musiqiy iste’dodi bolalarning san’atdagi muvaffaqiyatining garovi bo‘ldi.

1961 yilda Moskva konservatoriyasiga o‘z davrinig mashhur va taniqli skripka o‘qituvchisi Boris Belenkiyning sinfiga o‘qishga kirdadi. Ishdan dam olish kunlarida u shogirdlarini Nemirovicha-Danchenko ko‘chasidagi uyida qo‘shimcha darslar olib, yaxshi natijalarga erishadi.

Moskva konservatoriyasini skripka bo‘yicha tamomlab, Moskva badiiy akademik teatri orkestriga o‘qishga kirdi va u yerda uzoq yillar ishladi. Komozitor hech qanday cholg‘usiz musiqa yaratdi, skripka va fortepiano uchun arlar, kvartetlar, skripka konsertlari va ko‘plab asarlar muallifi.

**Sherzod Sobirov.** 1988-yil 30-noyabr kuni Bekobod shahrida tug‘ilgan. U ilk bor musiqa sabog‘ini otasidan o‘rgandi. Dastlabki musiqa saboqlarini Bekobod shahridagi 11-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida “Qashqar rubob” va



“Akademik xonandalik” yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil oldi. So‘ngra maktabni tamomlab, 2004-yil Bekob od san’at kollejiga “Akademik xonandalik” yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. O‘qish davrida ustozlari unda fortepiano cholg‘usiga bo‘lgan qiziqishi va badihago‘ylik salohiyatini ko‘rib, unga kompozitorlik maktabini chuqurroq egallashini tavsiya qilishdi. Kollejni muvaffaqiyatli tamomlab, 2007-yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Bastakorlik san’ati” yo‘nalishi bo‘yicha professor Oydin Abdullayeva sinfida tahsil oladi. O‘qish davrida bir qator kamer cholg‘ular va orkestr uchun asarlar yaratadi.

2011-yili magistratura bosqichiga o‘qishga qabul qilinadi. O‘quv jarayonida fortepiano uchun prelyudiyalar, turli kamer asarlar, ikkita simfoniya va turli janrlarda asarlar yaratadi. Jumladan bolalar uchun estrada qo‘shiqlari, “Vafodor”, “Chegara”



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

kino filmlarga musiqa bastaladi. Uning yaratgan asarlari bir necha xorij davlatlarida, jumladan, Qozogʻiston, Qirgʻiziston hamda Germaniyaning Gamburg va Kyoln shaharlarida ijro qilindi.

Sh.Sobirov turli tanlovlarda ham faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, “Omnibus” ansambili uchun yaratilgan “Eng yaxshi asar” tanlovida II oʻrin, birinchi yosh kompozitorlar festivalida faxrli I oʻrinni egalladi. “Kompozitorlik va cholgʻulashtirish” kafedrasi hamda “Oʻzbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi” tomonidan oʻtkazib kelinayotgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Oʻzbek xalq cholgʻularidan dutor bas uchun yozilgan “Talqin” asari ijrochilarning dasturidan oʻrin olgan. Hozirda S.Sobirov Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholgʻulashtirish” kafedrasida oʻqituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Ijro koʻnikmalari deganda nimani tushunasiz?
2. Pozithiya nima degani?
3. Applikatura nima degani?
4. Gamma, mashq, etyudlarni ta’riflab bering.
5. Oʻzbek xalq cholgʻularini rekonstruksiya qilinishi haqida ma’lumot bering.

**Mustaqil ta’lim olish uchun topshiriqlar:**

1. Kompozitor Sh.Sovirovning maxsus dutor bas uchun yozgan №22 etyudini ijro tahlilini qiling, pozitsiya va applikaturalarini beilgilang.
2. Z.Turapovning ijro amaliyotidan boʻlgan №24 etyudni ijro tahlilini qiling, pozitsiya va applikaturalarini beilgilang.
3. Kompozitor Sh.Sobirov ijodiy faoliyati haqida ARM dan ma’lumoq yigingʻ
4. Oʻquv qoʻllanmaga kiritilgan etyudla mualliflari, kompozitorlar D.Popper, F.Kummer, F.Gryusmaxer R.Sapojnikov Yu.Dosauerlarning hayoti va ijodiy faoliyati haqida internet tarmoqlaridan ma’lumot yigʻiing.
5. Kompozitorlar M.Osokin, G.Kayzer, S.Li, L.Shpor, S.Lyapunov va N.Baklanova ijodi bo’yicha ATMdan ma’lumot toʻplang.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.1. Григорян Г. “Школа этюдов для виолончели”. –Москва 1978.
1.2. Дотцауэр Д. “Школа игры на виолончели”. –Москва.2020.
1.3. Поппер Д. “10 больших этюдов средней трудности соч.76, Высшая школа игры на виолончели соч. 73”. –Москва.2020.
1.4. Кайзер Г. “36 элементарных прогрессивных этюдов для скрипки”. –Москва 1966.
1.5. Себастьян Ли. “Сорок легких этюдов: для виолончели (в первой позиции: Ор.60”. –Москва; Ленинград. 1940.



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 1

D.Popper

♩.=80






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 2

F.Kummer






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 3

F.Gryusmaxer






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 4

Z.Turapov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

2








Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 5

R.Sapojnikov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022








Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 6

F.Dotsauer






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 7

M.Osokin

♩=125





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 8

G.Kayzer

♩=130





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 9

R.Sapojnikov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 10

Z.Turapov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 11

S.Li






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 12

L.Shpor

♩=105





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 13

R.Sapojnikov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022








Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 14

Z.Turapov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

2






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 15

S.Lyapunov

♩=105





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022







Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 16

R.Sapojnikov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 17

N.Baklanova






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 18

♩. = 80

S.Li






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 19

Yu.Dotsauer

♩=110






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 20

Z.Turapov





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 21

♩=100

**F.Gryusmaxer**






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH

Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda albatta uning qobiliyati, texnik imkoniyatlari, nazariy bilim saviyasiga katta e'tibor qaratish lozim. Ixtisoslikdan mustaqil shug'ullanish jarayonida ham talaba dastlab turli shtrixlarda gammalar va turli shtrixlardagi mashqlardan boshlashi maqsadga muvofiq. Har bir gamma va mashqlarni ijro jarayonida 10-15 daqiqadan, shoshmasdan, tovushlarni sof va ravon sadolanishi e'tibo bergan holda shug'ullanishlari lozim. Etyudlarni o'rganishda talabaning ijro imkoniyatini inobatga olib asta-sekin, ya'niy, texnik jihatdan yengildan qiyinga qarab rejalashtirish maqsadga muvofiq.

Etyud - cholg'u asari bo'lib, odatda kichik hajmli, murakkab ijro texnikasidan tez-tez foydalanishga asoslangan va ijrochining texnikasini oshirishga qaratilgan.[8]

O'quv qo'llanmaga kiritilgan beshta etyud (iste'dodli kompozitor Sh.Sobirovning dutor bas uchun maxsus bastalagan № 22, № 23 va muallifning ijrochilik amaliyoti namunalaridan № 24, № 25, № 26) talabalarning mustaqil ta'limi uchun mo'jallangan. Etyudlarning faqat metronom tezligi belgilangan bo'lib, talabalar ushbu etyudlarni o'zlashtirish jarayonida applikaturasini, pozitsiyasini dinamikasini o'zlari aniqlab, ijro tahlilini qilishlari lozim. O'rganish jarayonida har bir frazaning rivoji, tonal o'zgarishlariga katta e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq.

Bildirilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatishda ijodiy yondoshish muhimdir. Hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan mutaxassilarni istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Talabalarga ijro tahlili jarayonida bir oz yorda berish maqsadidi ularning tonalligini keltirib o'tishni lozim deb topdik

1. Etyud № 22, frigiy ladida;
2. Etyud № 23, re major;
3. Etyud № 24, sol minor;
4. Etyud № 25, lya major;
5. Etyud № 26, lya major.



[8] https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/etyud.html



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 22

♩. =125

Sh.Sobirov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 23

Sh.Sobirov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## № 24

♩.=70

Z.Turapov





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 25

♩=105

Z.Turapov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# № 26

Z.Turapov






Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

## TEST SAVOLLARI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1. “Applicatura” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) nemischa - **“applikatur”**, lotincha - “**applico”** Qo‘ymoq, bosmoq | b) italiyancha - **“applikatur”**, nemischa – “**applico”** Qo‘ymoq, bosmoq | **c)** nemischa - **“applikatur”**, farsuzcha – “**applico”** Qo‘ymoq, bosmoq | d) Italiyancha - **“applikatur”**, nemischa - “**applico”** Qo‘ymoq, bosmoq |
| **2. “Alteratsiya” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Tez ijro qilish | b) O‘zgartirish | c) Og‘ir ijro qilish | d) Jonli ijro qilish |
| **3. “Animato” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Jonli | b) Og‘ir | c) O‘rta | d) Shoshmasdan |
| **4. “Arpedjio” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Arfada chalmoq, akkordning yoyilgan ijrosi | b)Arfada chalmoq, akkordning temolo ijrosi | c) Arfada chalmoq, akkordning pizzicato ijrosi | d) Arfada chalmoq akkordning staccato ijrosi |
| **5. “Glissando” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish | b) Bir tovushdan ikkinchi tovushga sakrab o‘tish | c) Bir tovushdan ikkinchi tovushga tez o‘tish | d) Bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘almasdan o‘tish |
| **6. Dutor bas cholg‘usi qaysi cholg‘u bilan bir xil sozlanadi?** | | | |
| a) G‘ijjak qobuz bas | b) G‘ijjak qobuz kontrabas | c) Dutor kontrabas | d) Qashqar rubobi |
| **7. Dutor bas cholg‘usi torlari qaysi oktavalarda sozlanadi?** | | | |
| a) Do, sol - katta oktava; re, lya - kichik oktava | b) Do, sol - kichik oktava; re, lya - katta oktava | c) Do, sol - kichik oktava; re, lya - kichik oktava | d) Do, lya - katta oktava; re, sol - kichik oktava |
| **8. Dutor bas notalari qaysi kalitda yoziladi?** | | | |
| a) Bas va tenor kalitlarida, yuqori pardalarda skripka kalitida yozilishi ham mumkin | b) Skripka, alt kalitlarida, yuqori pardalarda bas kalitida yozilishi ham mumkin | c) Skripka, tenor kalitlarida, yuqori pardalarda bas kalitida yozilishi ham mumkin | d) Tenor va alt kalitlarida, yuqori pardalarda bas kalitida yozilishi ham mumkin |
| **9. Dutor bas cholg‘usi notaga yozilishiga ko‘ra qanday eshitiladi?** | | | |
| a) Notaga yozilganday eshitiladi | b) Notaga yozilganidan oktava yuqori | c) Notaga yozilganidan oktava past | d) Notaga yozilganidan bir ton past |
| **10. Dutor bas qaysi cholg‘u guruhiga mansub?** | | | |
| a) Zarbli cholg‘ular guruhiga | b) Torli tirnama cholg‘ular guruhiga | c) Kamonli cholg‘ular guruhiga | d) Puflama cholg‘ular guruhiga |



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

| | | | |
|---|---|---|---|
| **11. “Diminuendo” dinamik belgisi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Ijro jarayonida tovushni pasaytirib borish | b) Ijro jarayonida tovushni kuchaytirib borish | c) Ijro jarayonida tovushni baland ijro etish | d) Ijro jarayonida tovushni past ijro etish |
| **12. “Diapazon” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Kamonli cholg‘ular guruhi | b) Cholg‘uning sozlanishi | c) Cholg‘uning tovush hajmi | d) Tez tempda ijro qilish |
| **13. Dutor basda ovoz chiqarish uchun nimadan foydalaniladi?** | | | |
| a) Ebonitdan ishlangan mediatordan | b) Taroqdan ishlangan mediatordan | c) Yog‘ochdan ishlangan mediatordan | d) Simdan ishlangan mediatordan |
| **14. Qaysi kompozitor dutor bas cholg‘usi uchun maxsus etyud yozgan?** | | | |
| a) X.Nazarov, | O.Abdullayeva | b) M.Otajonov | c) Sh.Sobirov |
| **15. Dutor bas cholg‘usi qaysi interval oralig‘ida sozlanadi?** | | | |
| a) Kvarta | b) Sekunda | c) Septima | d) Kvinta |
| **16. “Zarbi parron” qanday usul?** | | | |
| a) Ijroda mizrob bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berish | b) Ijroda mizrob bilan bir tovushdan ikkinchi tovushga ohista sirg‘alib o‘tish qilish | c) Ijroda kvarta va undan ham ortiq intervallarda bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish | d) Musiqiy asar jro jarayonida torlarni mizrob bilan yuqoridan pastga birin-ketin uzluksiz sadolantirish |
| **17. Harakat tezligi bu nima?** | | | |
| a) Temp | b) Takt chizig‘i | c) Nota cho‘zimi | d) Alteratsiya |
| **18. Interval nima?** | | | |
| a) Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo‘shilmasi | b) Ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan texnik musiqiy asar | c) O‘zaro bog‘lanib izchil kelgan tovushlar cho‘zimi va ketma-ketligi | d) Ikki yoki undan ortiq qo‘shni tovushlarni bir hissa vaqtida birin-ketin juda tez ijro etish |
| **19. “Crescendo” dinamik belgisi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Ijro jarayonida tovushni asta-sekin kuchaytirib borish | b) Ijro jarayonida tovushni past ovozda, tez ijro etish | c) Ijro jarayonida tovushni pasaytirib, yumshoq ijro etish | d) Ijro jarayonida tovushga urg‘u berib, hissiyot bilan ijro etish |
| **20. Kuchli va kuchsiz hissalarning bir me’yorda kelishi nima deyiladi?** | | | |
| a) Metr | b) O‘lchov | c) Takt | d) Aksent |
| **21. “Legato” nimani anglatadi?** | | | |
| a) Ikki yoki undan ortiq tovushlarni uzib ijro qilish | b) Ikki yoki undan ortiq tovushlarni uzmasdan ijro etish | c) Ikki yoki undan ortiq tovushlarni tez sur’atda ijro etish | d) Ikki yoki undan ortiq tovushlarga urg‘u berib ijro etish |



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

| | | | |
|---|---|---|---|
| **22. "Liga" so'zi qanday ma'noni anglatadi?** | | | |
| a) Lotincha "bog'layman" | b) Italiyancha "bog'layman" | c) Fransuzcha "bog'layman | d) Nemischa "bog'layman" |
| **23. "Lad" nima?** | | | |
| a) Turg'un va noturg'un musuqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi | b) Fan metodologiyasida ma'lum bir davrda ilmiy an'analar doirasida ilmiy jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar | c) O'zgarmaydigan bosh kuyni bir necha bor, turli mazmundagi lavhalardan so'ng qaytarilishiga asoslangan musiqa shakli. | d) Muayyan musiqa tizimidagi barcha tovushlarning tartiblashgan majmuasi, pastdan yuqoriga qarab joylashtirilgan, ketma-ketligi |
| **24. Lyunta qaysi xalqlarning cholg'usi xisoblanadi?** | | | |
| a) Turk | b) Arab | c) Yevropa | d) Sharq |
| **25. Mizrobli cholg'ular qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?** | | | |
| a) Rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas | b) G'ijjak, tanbur, qo'shnay, qashqar rubobi, afg'on rubobi | c) Doyra, nay, g'ijjak, afg'on rubobi, g'ijjak qobuz bas | d) Nay, qo'shnay, surnay, g'ijjak qobuz bas, afg'on rubobi, qashqar rubobi |
| **26. Musiqada vaqtincha to'xtalish nima deb ataladi?** | | | |
| a) Pauza | b) Takt | c) Temp | d) Nota cho'zimi |
| **27. "Metr" deganda nimani tushunasiz?** | | | |
| a) Kuchli va kuchsiz hissalarni bir tekis almashib kelishi | b) Turg'un va noturg'un tovushlarni ketma-ket kelishi | c) Ritm va metr ning bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi | d) Bir hissada ikki qo'shni tovushni birin-ketin juda tez ijro etilishi |
| **28. "Melizm" qanday ma'noni anglatadi?** | | | |
| a) Cholg'u va yakkaxon uchun maxsus yozilgan musiqiy asar | b) Musiqani grafik shaklda yozib belgilash usullari | c) Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi | d) Kuyning asosiy pog'onalarini o'zgartiradigan qo'shimcha vosita |
| **29. Murakkab ritmlar qanday hosil bo'ladi?** | | | |
| a) Musiqada taktning urg'u hissasini urg'usiz hissaga ko'chirish | b) Notalar chap tomonidan pastga qo'yiladigan kalta chiziqcha | c) Bir xil ikki va undan ortiq metrlarning urilishidan | d) bir yoki bir nechta moslamalarni bir xil qiymatga kamaytirish jarayoni |
| **30. "Molish" qanday ijro usuli?** | | | |
| a) bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg'altirish | b) bir tovushdan ikkinchi tovushga sakrab, ohangdor tez o'tish | c) bir tovushdan ikkinchi tovushga glissando bilan tez sakrab o'tish | d) bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tganda trel bilan davom ettirish |
| **31. Noturg'unlikdan turg'unlikka o'tish nima deb ataladi?** | | | |
| a) Pauza | b) Yechilish | c) Ritm | d) Og'ishma |



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

| | | | |
|---|---|---|---|
| **32. “Nota” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Nemischa yozish, belgilash, musiqa tovushlarining yozma belgisi | b) Lotincha yozish, belgilash, musiqa tovushlarining yozma belgisi | c) Italiyancha yozish, belgilash, musiqa tovushlarining yozma belgisi | d) Fransuzcha yozish, belgilash, musiqa tovushlarining yozma belgisi |
| **33. “Ornamentika” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Bezatish | b) Liga | c) Arco | d) Diminuendo |
| **34. “Piano” dinamik belgisi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Tovushni tirnab ijro etish | b) Tovushni past ijro etish | c) Tovushga urg‘u berish | d) Tovushni baland ijro etish |
| **35. Pauzalar kema-ketligi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?** | | | |
| a) Butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o‘n oltitalik, o‘ttiz ikkitalik | b) Butun, yarimtalik, sakkiztalik, choraktalik, o‘ttiz ikkitalik, o‘n oltitalik | c) Butun, choraktalik, yarimtalik, sakkiztalik, o‘ttiz ikkitalik, o‘n oltitalik | d) Butun, sakkiztalik, choraktalik, yarimtalik, o‘ttiz ikkitalik, o‘n oltitalik |
| **36. “Pipa” qaysi xalqning milliy cholg‘usi hisoblanadi?** | | | |
| a) Xitoy | b) Yapon | c) Arab | d) Turk |
| **37. “Pozitsiya” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Lotincha “holat” | b) Italiyancha “holat” | c) Nemischa “holat” | d) Fransuzcha “holat” |
| **38. “Rezonator” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Lotincha aks-sado bermoq | b) Nemischa aks-sado bermoq | c) Fransuzcha aks-sado bermoq | d) Italiyancha aks- sado bermoq |
| **39. “Ritm” deganda nimani tushunasiz?** | | | |
| a) Kuyning o‘lchovi | b) Kuyning tezligi | c) Kuyning tonalligi | d) Kuyning usuli |
| **40. “Stakatto” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Tovushlarni uzib, qisqa ijro etish | b) Tovushlarni uzmasdan qisqa ijro etish | c) Tovushlarni aniq va ravon ijro etish | d) Tovushlarni tez sur’atda, past dinamikada ijro etish |
| **41. “Sinkopa” uslubi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Taktning urg‘usiz hissasini urg‘u hissaga ko‘chirish | b) Taktning urg‘u hissasini urg‘usiz hissaga ko‘chirish | c) Ijroda ovozlarning muayyan sadolanishi | d) Musiqa cholg‘ularida tovushni kuchaytirib beruvchi moslamalar |
| **42. “Transpozitsiya” deganda nimani tushunasiz?** | | | |
| a) Tovushlarni boshqa tonallikka (past yoki yuqori) ko‘chirish | b) Ton va yarim tondan iborat besh pog‘onali tovushlar tizimi | c) Qobiliyat va musiqiy xotirani rivojlantirishga qaratilgan fan | d) Cholg‘uda torlar tebranishidan paydo bo‘ladigan to‘lqin sadosi |



Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

| | | | |
|---|---|---|---|
| **43. “Tembr” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Italiyancha tovush sifati, tusi, bo‘yog‘i | b) Nemischa tovush sifati, tusi, bo‘yog‘i | c) Fransuzcha tovush sifati, tusi, bo‘yog‘i | d) Forscha tovush sifati, tusi, bo‘yog‘i |
| **44. “Tremolo” so‘zining ma’nosi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Tovushlarning tartiblashgan majmuasi | b) Tovushlarning tartiblashmagan majmuasi | c) Cholg‘ularda tovush chiqarish uslubi | d) Tovushning oralig‘i, masofasi, tovushqator |
| **45. “Ton” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Ikkita tovushning oralig‘i, masofasi | b) cholg‘u uchun yozilgan maxsus musiqiy asar | c) Mizrobli cholg‘ular uchun yozilgan asar | d) Musiqa asarining jamoa tomonidan bir vaqtda ijro etilishi |
| **46. “Forte” dinamik belgisi nimani anglatadi?** | | | |
| a) Tovushni tirnab ijro etish | b) Tovushga urg‘u berish | c) Tovushni baland ijro etish | d) Tovushni past ijro etish |
| **47. “Xromatizm” qanday ma’noni anglatadi?** | | | |
| a) Diatonik laddagi pog‘onalarning yarim tondan o‘zgarishi | b) Melodik laddagi pog‘onalarning yarim tondan o‘zgarishi | c) Garmonik laddagi pog‘onalarning yarim tondan o‘zgarishi | d) Garmonik laddagi pog‘onalarning yarim tondan o‘zgarishi va ketma-ketligi |
| **48. Eng past yo‘g‘on tovush qatoriga ega bo‘lgan cholg‘ular qaysilar?** | | | |
| a) G‘ijjak qobuz kontrabas, dutor kontrabas | b) G‘ijjak qobuz bas, g‘ijjak alt, dutor bas | c) Dutor kontrabas, dutor bas, chang | d) Dutor bas, g‘ijjak qobuz bas, g‘ijjak qobuz kontrabas |
| **49. Etyud qanday shakldagi asar?** | | | |
| a) Ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan yirik shakldagi musiqiy asar | b) Ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan sonata shaklidagi musiqiy asar | c) Ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan texnik (virtuoz) musiqiy asar | d) O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri va xor uchun yaratilgan yirik shakldagi musiqiy asar |
| **50. O‘zbekistonda dutor bas cholg‘usi ijrochiligiga asos solgan sozanda kim?** | | | |
| a) A.Odilov | b) G‘.Ergashev | c) A.Nazarov | d) A.Umarov |





Copyright © Zulkhorbek, the original version of the instruction manual en.2022

# GLOSSARIY. MUSIQIY TERMINLAR LUG‘ATI

| |
|---|
| **Dinamika** (yun. dinamis - kuch) - tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Ital. atamalari bilan belgilanadi: piano ( *p*) - sekin, forte ( *f* ) - qattiq, kuchli, crescendo (<) - asta-sekin kuchaytirib borish, diminuendo (>) - asta-sekin pasaytirib borish. |
